

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
A.QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI

Pedagogika va boshlang'ich ta'lim fakulteti

Umumiy sixologiya kafedrası

“Himoyaga ruxsat etilsin”

fakultet dekani

_____ dots.M.Rabbimov

_____ 2013 yil

5141600 - “Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi ”

yo'nalishi bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: “Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda sezgilarning rivojlanishi”.

Bajaruvchi: “Boshlang'ich ta'lim va pedagogikasi” yo'nalishi IV kurs talabasi
Qo'shiboeva Nodira

Ilmiy rahbar: Pulatova N.

Ilmiy maslahatchi: Shodiyev X.

Pulatova N

(ilmiy rahbar ismi va sharifi) _____ (imzo)

Ishni himoyaga tavsiya etaman:

BMI Umumiy psixologiya kafedrası
yig'ilishining
qarori bilan (Qaror №__ __ 2013 y)
himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: dots. Yo. R. Alimqulov
(Ismi sharifi)

_____ (imzo)

JIZZAX 2013

**Mavzu: Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda sezgilarning
rivojlanishi.**

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-10
I BOB. Kichik maktab yoshi o'quvshilarining bilish jarayonlarini shakllantirishning psixologik mexiyati	11-26
1.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik xususiyatlari	11-18
1.2. Bilish jarayoni sezgi to'g'risida umumiy tushuncha.....	19-26
II BOB. Kichik maktab yoshi o'quvshilarining rivojlanishida sezgi xususiyatlarining o'ziga xos jihatlari.....	27-44
2.1. O'quv jarayonida bilish jarayoni sezgilarining ahamiyati	27-30
2.2 Ta'lim jarayonida o'quvshilar sezgilarining o'rganilishi.....	31-35
2.3. O'quvshilarining sezgi xususiyatlarining o'sishi	36-44
UMUMIY XULOSALAR.	45-46
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.	58-59

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. 2012 yil 19 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalariga bag'ishlangan majlisida Prezidentimiz Islom Karimov «2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi» mavzusidagi ma'ruzasida ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirgan ishlar haqida alohida to'xtaldi. O'tgan yillar mobaynida yurtimizda umumiy o'rta ta'limdan boshlab o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'limgacha bo'lgan bo'g'inlarda chuqur bilim va puxta kasb-hunar tayyorgarligiga ega bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash jarayonini o'z ichiga olgan yaxlit uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirish ishlari izchil davom ettirildi.

Darhaqiqat, mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan keyingi 20 yil ichida xalqimiz o'zining mard va donishmand rahbari boshchiligida asrlarga tatigulik ulkan ishlarni amalga oshirdi. Mamlakatimizda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayot va milliy ma'naviyat sohalarida tub islohotlar tufayli yurtimizda obod va erkin farovon hayot asoslari barpo etildi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan uning me'yoriy-huquqiy asoslari quyidagi hujjatlarda belgilab berildi hamda ular bazasida eng muhim yo'nalish va natijalar ijrosi ta'minlandi.

O'zbekistonda ta'lim respublika ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-madaniy hayotining eng muhim yo'nalishidir. Ta'limning huquqiy asoslari mamlakatimiz Konstitutsiyasi, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida o'z aksini topgan.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari bo'lgan shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarishdan iborat bir butun tizim yuzaga keldi.

Bundan 15 yil oldin qabul qilingan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi deb nom olgan Ta'lim sohasini isloh qilish dasturi mamlakatimizda yangi jamiyat qurishning bosqichma-bosqich va tadrijiy rivojlanish printsipiga asoslangan iqtisodiy va siyosiy islohotlarning biz tanlagan «o'zbek modeli» - o'z taraqqiyot yo'limizning tarkibiy

qismidir... Bu dastur hayotda o'z fikriga, o'zining qarashlari va qat'iy fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, har tomonlama etuk va mustaqil fikrlaydigan shaxsni shakllantirishni maqsad qilib qo'ydi.

Hammamizga teran bir haqiqat ayon bo'lishi kerak - biz yurtimizning ertangi rivoji yo'lida qanday chuqur o'ylangan dasturlarni tuzmaylik, bu rejalarni bajarish uchun qanday moddiy baza va imkoniyatlarni yaratmaylik, buning uchun qancha ko'p sarmoya safarbar etmaylik, ularning barchasini amalga oshiradigan, ro'yobga chiqaradigan qudratli bir omil borki, u ham bo'lsa, yuqori malakali ish kuchi va yurtimizning ertangi kuni, taraqqiyoti uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan etuk mutaxassis yoshlarimiz, desak, o'ylaymanki, hech qanday xato bo'lmaydi.

Mustaqil respublikamizda yosh avlod tarbiyasiga katta e'tibor berilmoqda. Bugungi kunda boshqarishning yangi qonun-qoidalaridan foydalanish, millatimizni o'z-o'zini anglash ta'lim-tarbiya jarayoni oldida turgan muammolar ta'lim tizimi mazmuni, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarga mos keladigan yoshlarni tarbiyalashni talab etadi.¹

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining qator asarlari orqali bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasini yorqin misollar asosida taxlil qilib berdi. Har bir mustaqil mamlakatda ham, jahon miqyosida ham mustabid tuzumdan mustaqil rivojlanish davriga o'tishning mazmuniga erkinlik va tenglikni, shaxsning dunyoqarashi va sog'lom e'tiqodini singdirish murakkab jarayon ichida kechadi. Mustaqil Vatanimiz esa o'zining tarixan qisqa davrida bir qator izchil taraqqiyot bosqichlariga ega bo'ladi.

Mamlakatimizda barqaror va samarali iqtisodiyotni shakllantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar bugungi kunda o'zining natijalarini namoyon etmoqda. Jumladan, qisqa vaqt ichida iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, aholi daromadlarining o'sishini ta'minlash, samarali tashqi savdo hamda investitsiya jarayonlarini kuchaytirish, qishloq xo'jaligini isloh qilish, kichik

¹ I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" Toshkent 2008y.

biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini barqaror rivojlantirish, bank-moliya tizimi faoliyatini mustahkamlashda ahamiyatli yutuqlar qo'lga kiritildi.

O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy maydondagi nufuzi va mavqeyi sezilarli darajada va muntazam oshib bormoqda. Bunda mamlakatimiz rahbari Islom Karimov tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining puxta ishlab chiqilganligi, iqtisodiy islohotlar maqsadi va vazifalari, amalga oshirish yo'llarining aniq va to'g'ri ko'rsatib berilganligi bosh maqsad yo'lidagi yutuq va marralarning salmoqli bo'lishiga imkon yaratdi. Ayni paytda bu dastur inqirozdan so'ng O'zbekiston iqtisodiyotining yanada kuchli, barqaror va mutanosib rivojlangan holda maydonga chiqishi, jahon bozorlarida o'zimizning mustahkam o'rnimizni egallash, shular asosida izchil iqtisodiy o'sishni ta'minlash, xalqimizning hayot darajasi va farovonligini yanada oshirish bo'yicha oldimizda turgan ustuvor vazifalarni muvaffoqiyatli hal etish uchun ishonchli zamin yaratadi. Bu holat esa milliy istiqlol g'oyalarining mohiyatini kengroq yaratib berishga xizmat qiladi.

Buning bugungi yoshlarning komil inson bo'lishlari uchun boshlang'ich sinfdanoq bilish jarayoni diqqat xususiyatlariga etiborimizni qaratmog'imiz lozim. Ta'limda yangilanish jarayoni ketayotgan paytda boshlang'ich ta'lim tizimini samaradorligini oshirish bu jarayonning psixologik mexanizmlarini belgilab berish bilan bog'liq.

Ta'limning barcha bosqichlariga oid umumiy pedagogik va didaktik talab o'quvchining dasturiy bilim, tasavvur va ko'nikmalari asosida mustaqil ishlash samaradorligini takomillashtirish, ilmiy fikrlashga, o'quv faniga qiziqishini kuchaytirish, kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish, nazariy va amaliy mashg'ulot mobaynida ularning faolligini oshirishdan iboratdir. Jahon pedagogik tajribasi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarining o'quvchilarni fanlarga qiziqtirishga, ularning mustaqil ishlashda faolliklarini oshirishga imkoniyati cheksiz ekanligini tasdiqlamoqda.

Ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni kun sayin oshirib borayotgan axborot – ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot

oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyatini va sharoitini yaratib berish zarur.

O'zbekiston Respublikasi demokratik, huquqiy va fuqoralik jamiyatini qurish yo'lidan borayotgan bir paytda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi va harakatga keltiruvchi kuchi har tomonlama rivojlangan barkamol insonni tarbiyalashdan iboratdir.

Shaxs ta'lim xizmatlarining ishlab chiqaruvchisi sifatida bilim va tajribani o'quvchiga uzatishda, moddiy ishlab chiqarish muhiti sharoitida, shuningdek, fan, madaniyat va xizmatlar ko'rsatish sohalarida ishtirok etadi. Shu sababli, ta'limning belgilangan vazifalaridan biri yuqori saviyada o'qitishni ta'minlash va malakali kadrlarni zamonaviy ta'lim djasturlari asosida tayyorlashdan iboratdir. Ta'lim muassasasi o'sib kelayotgan shaxsni o'qitish jarayonida ularga ta'lim olish sharoitlarini yaratadi. O'quvchilarning bilimga ehtiyojlari va qobiliyatlarini shakllantirish hamda rivojlantirishning yo'naltirilgan bo'lishi o'qituvchi faoliyatining ma'suliyatini oshiradi. Ta'lim muassasasi o'qituvchisining malakasi maxsus va pedagogik fanlar bilan yoritiladigan ikki qirraga ega bo'lishi lozim va u doimo: «Nima uchun o'qitish kerak?», «qanday o'qitish kerak?» degan savollarga javob topishi, shuningdek, ta'lim-tarbiya xususiyatlari e'tiborga olingan bilimlarga asoslangan bo'lishi lozim.

Shu bois boshlang'ich sinf o'quvchilarining sezgi xususiyatlarini o'rganish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini alohida ta'kidlash zarur. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar sezgining psixologik tomonlarini bilish, ularda sezuvchanlikni rivojlantirish boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga yordam beruvchi mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

Bu islohatlarning barchasi inson omilini har qachongidan ham yuqori saviyaga ko'tarib, uning kuchi, idroki, salohiyati, ruhiy hamda ma'naviy barkamolligini bevosita taraqqiyot, rivojlanish va sivilizatsiya bilan uzviy bog'ladi. Bundan inson va uning mukammalligi, o'z ustida ishlashi, o'z mukammalligi xususida qayg'urishi muammosi har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi.

Xullas sezgi va uning hususiyatlarini tarkib toptirish yoshlar ichki dunyosining yuksalib, har jihatdan shakllanishi uchun eng kerakli shartdir.

Bilimning mustahkam va ishonarli bo'lishi avvalo bolalarda sezuvchanlik jarayoniga tayanuvchi psixologik omildir. Bolalarning sezgirligi hususiyatlarini tarbiyalash shaxs kamolotining har bir davri uchun bilish, jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari shakllanishiga mustahkam asos bo'ladi.

Shuningdek biz BMImizni Boshlang'ich sinf o'quvchilarda ta'lim-tarbiya natijasida tarkib topadigan sezgi ba kuzatuvchanlik hislatlari ularning ahamiyatidan kelib chiqib Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda sezgilarning rivojlanishi nomli mavzusini yoritishdan iborat bo'lib, Respublikamizda kadrlar tayyorlash milliy dasturida ilgari surilgan vazifalardan uyg'unlashganidan mavzumizning dolzarbligi ko'rinib turibdiki biz o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol tarbiyalamasdan turib ko'zlagan maqsadga ozod va obod mamlakatni barpo etib bo'lmaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: O'quvchilarda sezgilarning rivojlanishini aniqlashda va jarayonlarning inson hayotida ahamiyatini aniqlashda I.P.Pavlov, A.A.Uxtomskiy, E.N.Sokolov, A.R.Luriya, P.Ya.Galperin, E.I.Boykolar, K.N.Kornilov, S.L.Rubnshteyn, P.K.Anohin, K.M.Bikov, N.A.Bernshteyn, A.N.Leontev, L.S.Bigotskiylar katta hissa qo'shganlar. Ammo aynan Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda sezgilarning rivojlanishini aniqlashga bag'ishlangan muammo o'zining mukammal psixologik yechimini topmagan. Shuningdek biz BMImizni Boshlang'ich sinf o'quvchilarining sezgi jarayonlarini shakllantirishning psixologik jihatlarini o'rganishidan va inson shaxsining tarkib topishidagi ahamiyatidan kelib chiqib "Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda sezgilarning rivojlanishi" deb tanladik.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda sezgilarning rivojlanishi va o'quvchilarda sezgi hususiyatlarini shakllantirishning nazariy asoslarini yoritishdan iborat. Boshlang'ich sinf o'quvchisining sezgirligi va kuzatuvchanligi xislatlarining ta'lim-tarbiya jarayonida rivojlanishining aniqlash va amaliyotga joriy etish.

Bitiruv malakaviy ishining ob'yekti: Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda sezgilarning rivojlanishi aniqlab va bu asosida olib borishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti: Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda sezgilarning rivojlanishini va ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyatini aniqlab bu asosida o'qitishning mazmuni, shakli, usul va metodlari hamda ixologik shart-sharoitlari.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari: Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda sezgilarning rivojlanishi va ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati, psixologik jihatlari, jarayonlarning ijobiy hususiyatlarini shakllantirishga oid bilimlarni rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslarini aniqlash; o'quvchisining sezgirlik hislatlarining ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati va ijobiy hususiyatlarini shakllantirishning ahamiyatini aniqlab yuksaltirishga oid psixologik samaradorligini aniqlash. Boshlang'ich sinf o'quvchisining sezgirligi va kuzatuvchanligi hislatlarining ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati ijobiy hususiyatlarini ta'lim-tarbiya jarayonida shakllantirish orqali o'quvchilarda Vatanga muhabbat, do'stlik o'rtoqlik, mehnatsevarlik kabi yuksak ma'naviy va irodaviy sifat va hislatlar tarkib toptirish.

Bitiruv malakaviy ishining metodlari: Muammoga oid malakaviy ishlar va adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatish, anketa, savol-javob, suhbat, ekspert bahosi, pedagogik eksperiment, semantik defferentsial umumlashtirish, pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalariga matymatik statik ishlov byerish.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqlari va asarlarida bayon qilingan o'qituvchilar, ularni kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish, oliy ta'limni takomillashtirish haqidagi fikrlari, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», dealektik bilish nazariyasi va uning muhim tamoyillari, «Oliy ta'lim konsepsiyasi», «Pedagogik ta'lim konsepsiyasi», «Umumiy o'rta ta'lim konsepsiyasi», Sharq mutafakkirlarining shaxs aqliy kamoloti faoliyati haqidagi qarashlari, Krutetskiy V.A., Rubinitits S. L., Ye. G'oziyev, A. V. Petrovskiy, M. V.

Vohidov, V. K. Korinova, M.J.Davletshin, kabi psixolog tadqiqotchilarning natijalariga asoslanildi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi: Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda sezgilarning rivojlanishi va ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyatining nazariy va psixologik asoslarini aniqlanganligi; o'quvchilarda sezuvchanlikni shakllantirishning psixologik shart-sharoitlarining belgilanganligi, o'quvchilarda, sezuvchanlikni shakllantirishning samaradorlik darajasi aniqlanganliklari bilan belgilandi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati: Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda sezgilarning rivojlanishi va ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyatining nazariy metodologik asoslarini xarakterlovchi jixatlar aniqlandi va bu asosda bosqichlari asoslandi. Bu bilan o'quvchilarida sezgi hususiystlarini shakllantirishida ta'lim-tarbiyaning innovatsion uslublari va pedagogik texnologiyalari bilan boyitildi. Ushbu bmidan «Psixologiya», «pedagogik psixologiya» kabi fanlarni va kurslarni o'qitishda foydalanish bo'yicha uslubiy tavsiyalar tayyorlandi. Boshlang'ich sinf o'quvchisining diqqati, sezgirligi va kuzatuvchanligi hislatlarining ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyatini yanada faollashtiruvchi testlar tayyorlandi bulardan oliy o'quv yurtlarida bo'lajak psixologlarni tayyorlash jarayonida, shuningdek, o'qituvchilarni qayta tayyorlash va bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishi natijalarining ishonchliligi va asoslanganligi: O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ga, shuningdek, pedagogika va psixologiya fanlarining hamda pedagogik psixologiyaning fundamental asoslariga amal qilinganligi; pedagogik tajriba-sinov ishlari (SI)ning keng miqyosda va izchil olib borilganligi; tadqiqot natijalarining haqqoniy tahlil qilinishi va ularning amaliyotga uzluksiz ravishda joriy etilib borilganligi bilan belgilandi.

Bitiruv malakaviy ishi natijalarining joriy qilinishi: Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda sezgilarning rivojlanishi va ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyatining qay darajada ekanligini maktabda barcha dars jarayonlarida turli to'garaklar, yangi

pedagogik texnologiyalar yordamida tizim vositasida rivojlantirishning psixologik asoslari yo'nalishida tadbiri qilindi.

Bitiruv malakaviy ishini himoyaga olib chiqiladigan g'oyalar va natijalar:

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda sezgilarning rivojlanishi va ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyatining nazariy va psixologik asoslari; mazmuni, metodlari, uzluksiz ketma-ketligi va pedagogik shart-sharoitlari, o'quvchilarida sezgi hususiyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan psixologik jarayonning samaradorligi darajasi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi: kirish, ikki bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan.

Bitiruv ishining umumiy mazmuni: Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, ishning maqsadi va vazifalari, metodlari haqida, ishning ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Ishning birinchi bobida boshlang'ich sinf o'quvshilarining bilish jarayonlarini shakllantirishning psixologik mohiyati, kichik maktab yoshi o'quvshilarining bilish jarayonlarini shakllantirishning psixologik mohiyati , boshlang'ich sinf o'quvshilarining psixologik hususiyatlari, sezgi to'g'risida umumiy tushunchalar atroflicha o'rganilgan

Ishning ikkinchi bobida kichik maktab yoshi o'quvshilarining rivojlanishida sezgi hususiyatlarining o'ziga hos jihatlari, o'quvshilar bilishida sezgilarning ahamiyati ta'lim jarayonida o'quvshilar sezgilarning o'rganilishi ,o'quvshilarining sezgi hususiyatlarining o'sishi kabi muammolarini o'rgatishga bag'ishlangan amaliy psixologik tadqiqotning tashkil qilinishi, tadqiqot uslublari va tajribalardan olingan natijalar tahlili yoritilgan.

Ishning xulosa qismida har ikkala bobdan kelib chiqib umumiy fikrlar berilgan.

I.BOB. Kichik maktab yoshi o'quvshilarining bilish jarayonlarini shakllantirishning psixologik mohiyati

1.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik xususiyatlari

Bola maktab yoshiga yetib, maktab ostonasiga qadam qo'yishi bilan yangi hayot sohasiga, yangi muhit sharoitiga kirib keladi. Bu davrdan boshlab bola faoliyatining mazmuni ham, tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarga bo'lgan munosabati ham muayyan darajada o'zgaradi.

Kichik maktab davrida bola bilim asoslarini o'rganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyorlanadi. Uning psixikasi bilim olishga yetadigai darajada rivojlanadi. Shu yoshdagi bola idrokining o'tkirligi, ravshanligi, sofliqi, aniqligi, o'zining qiziquvchanligi, ishonuvchanligi, hayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurining yaqqolligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Maktab ta'limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo'ladi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o'qish hisoblanadi. O'quvchining maktabga borishi, uning psixologik rivojlanishida va shaxsning shakllanishidagi o'rni nihoyatda katta. O'quv faoliyatida, o'qituvchi rahbarligida inson ongining turli asosiy shakllarining mazmunini egallaydi va insoniy an'analar asosida harakat qilishni o'rganadi. O'quv faoliyatida bola o'z irodasini o'quv maqsadlariga erishish uchun mashq qildiradi. O'quv faoliyati boladan nutq, diqqat, xotira, tasavvur va tafakkurini kerakli darajada rivojlanishini talab etgan holda, bola shaxsi rivojlanishi uchun yangi sharoitlarni yaratadi. Birinchi bor maktabga kelgan bola o'z atrofdagilari bilan psixologik jihatdan yangi munosabat tizimiga o'tadi. U hayotining tubdan o'zgarganligini, unga yangi majburiyatlar, nafaqat, har kuni maktabga borish, balki o'quv faoliyati talablariga bo'ysunish ham yuklatilganligini his eta boshlaydi.

Oila a'zolarining bola o'quv faoliyati, yutuqlari bilan qiziqayottanligi, shuningdek, uni nazorat qilayotganligi, unga qilinayotgan yangi muomala, munosabat uning ijtimoiy mavqei o'zgarganligini to'la his etishiga, o'ziga nisbatan munosabatining o'zgarishiga asos bo'ladi. Kattalar bolalarni amaliy jihatdan o'z vaqtlarini to'g'ri taqsimlash borasida yaxshi o'qish, o'ynash, sayr qilish va boshka

narsalar bilan shug'ullanishga o'rgatadilar. Demak, oilada bola u bilan hisoblashadigan, maslahatlashadigan yangi bir o'rinni egallaydi. O'quvchining maktabdagi muvaffaqiyati uning keyingi psixik rivoji va shaxsining shakllanishida to'liq ijobiy asos bo'ladi. Bola insoniy munosabatlar tizimida ham alohida o'rin egallayotganini, ota-onasi, yaqinlari, atrofdagilari unga yosh boladek emas, balki o'z vazifalari, majburiyatlari bor bo'lgan, o'z faoliyat natijasiga ko'ra hurmatga sazovor bo'lishi mumkin bo'lgan alohida shaxs sifatida munosabatda bo'ladilar. Buning natijasida bolaning o'z-o'zidan oilasi, guruhi va boshqa jamoalardagi o'z o'rnini anglay boshlaganini ko'rish mumkin.⁵

Bu davrda bolaning "Men shuni xohlayman motividan "Men buni bajarishim kerak" motivi ustunlik qila boshlaydi. Maktabda birinchi sinfga kelgan har bir o'quvchida psixik zo'riqish kuchayadi. Bu nafaqat uning jismoniy salomatligida, balki xatti-harakatida ham, ya'ni ma'lum darajada qo'rquvni kuchayishi, irodaviy faollikning susayishida namoyon bo'ladi. Bu davrga kelib bola atrofidagilar bilan o'zaro munosabatda ma'lum bir natijalarga erishgan, o'zi xoxlayotgan narsalarni hamda, o'z oilasida o'zi egallagan o'rnini aniq biladigan bo'ladi. Shuningdek, u o'zini-o'zi boshqarish malakasiga ega bo'ladi, vaziyat va xolatga qarab fikr yurita oladi. Bu yoshdagi bolalar xatti-harakatlari va motivlari ularning o'zlariga beradigan baholariga qarab "Men yaxshi bolaman" emas, balki bu xatti-harakatlar o'zgalar ko'z o'ngida qanday namoyon bo'lishiga qarab baholanishiga tushuna boshlaydilar.

Maktabga kelish arafasida bolaning so'z boyligi o'z fikrini bayon eta oladigan darajada ortadi. Agar bu yoshdagi normal rivojlanayotgan bola o'z nutqida 500-600 so'zni ishlatasa, olti yoshli bola 3000-7000 so'zni ishlatadi. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar nutqi asosan ot, fe'l, sifat, son va bog'lovchilardan iborat bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar o'z nutqlarida qaysi so'zlarni ishlatgani afzalu, qaysilarini ishlatish mumkin emasligini farqlay oladilar. 6-7 yoshli bola o'z jumllarini murakkab grammatik tizimda tuza oladi. Bola butun bolalik davrida nutqni jadal ravishda egallab borib, nutqiy o'zlashtirishi ma'lum bir faoliyatga aylana boradi. 7-9 yoshli

⁵ N.Boymurodov "Amaliy Psixologiya" Toshkent 2008y (165b).

bolalarning o'ziga xos yana bir xususiyati bola nutqida o'z fikrini bayon etibgina qolmay, balki o'z suhbatdoshining diqqatini o'ziga jalb qilish uchun ham gapiradilar.

Bu yoshdagi bolalarda idrox, diqqat, xotira, tafakkur va nutq to'liq shakllanib bo'lgani uchun ham ularga ta'msh berishda kattalarga qullaniladigan uslublardan foydalanish mumkin, Kichik maktab yoshidagi bolalar psixik rivojlanishga ularning atrofidagi odamlar, ota-onasi va ayniqsa o'qituvchi bilan bo'ladigan munosabatga orqali erishish mumkin, 3-4 sinflarga borib bola uchun uning urtoqlari bilan munosabatining ham ahamiyat ortadi. Bu munosabotlarida kattalar ta'lim-tarbiya maqsadlarida foydalanishlari mumkin. Bu yoshdagi bolalar sovtlab yolg'iz hold sevimli mashg'ulotlar bilan shug'ullanishlari mumkin shu asosda ularda mehnatsevarlik va mustaqillik fazilatlari shakllanadi.

Masalan to'satdan paydo bo'ladigan qattiq ovozlardan harakatniig o'zgarishidan va boshqa narsalardai ta'sirlanadi. Ixtiyoriy diqqatning alomatleri odatda bola yoshiga to'lgandan so'ng ikki yoshga qadam qo'ygan davrda paydo bo'la boshlaydi. Ixtiyoriy diqqat tarbiya jarayonida yuzaga keladi va atrofidagi odamlar nima qilish lozimligini asta-sekin o'rgatadilar. Bolalar o'z diqqatlarini ulardan talab qilinayotgan harakterlariga qaratishlariga o'zlarining bevosita moyillaridan voz kechishlariga to'g'ri keladi. Albatta juda sodda go'daklik shakli bo'lsa ham onglilik namoyon bo'ladi. Bolani ozodalikka, tartiblikka, ma'lum intizomlikka jamoat qoidalariga rioya qilishga o'rgatar ekanmiz, buning bilan biz bolada ixtiyoriy diqqatni rivojlantiramiz.

Agar kichik yoshdagi maktab o'quvchisining yuzi gavda holati uning qanchalik diqqatini aniq belgilab bersa, o'smir esa o'zining diqqatsizligini yanada inkor etadi. Faqat o'qituvchining kuzatuvchanligi, har bir o'quvchini istagiga qat'iy turishiga va faoliyatini mustaqil uyushtirishga qiynaladi. Ta'lim va inson faoliyatining barcha turlari, asosan ixtiyoriy diqqat ishi ulg'ayishi bilan, inson faoliyati va asosan tarbiyaning ostida o'sib boradi. Katta kishilar bolalarning diqqatini biron bir narsaga qaratadilar. Kattalar tomonidan qaratiladigan bu ixtiyoriy diqqat bola ikki yoshga yetishi bilan ko'rinadi. Bunda bola diqqatini to'planishi va barqarorligini saqlab turish uchun yoshlik paytidan boshlab ixtiyoriy ravishda o'ziga jalb qiladigan

qo'zg'atuvchilarning ta'surotini yengishga to'g'ri keladi. Katta kishilar bolang'ich, tartiblikka, intizomli bo'lishga va jamiyat ichidagi qoidalariga o'rgatadilar

Boshlang'ich maktab yoshidagi o'quvchi bolalar diqqatning o'ziga xos xususiyatlari bu bolalar nerv sistemasining rivojlanishiga bog'liqdir. Kichik yoshdagi o'quvchi bolalarda katta yarim sharlar po'stlog'ida qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining almashinishi nisbati tez o'tadi. Bunga sabab shuki bolalar tashqi taassurotlarga juda sezgir bo'ladilar, diqqatni har bir qo'zg'atuvchiga osonlik bilan qaratadilar. Shu sababli miya po'stlog'ida paydo bo'lgan yangi qo'zg'alish manbai bolani o'z diqqatini qaratgan narsadan chalg'ishga majbur qiladi. Buning natijasida diqqatning bir muncha beqarorligi vujudga keladi, uning bir predmetdan ikkinchisiga ixtiyorsiz ko'chishi ro'y beradi. Bunga kuchli rivojlangan oriyentirovka refleksi ham yordam beradi. Bolalarning ta'sirchanligi shunga olib keladiki, kichik yoshdagi o'quvchining diqqatini avvalo yorqin obrazli, ko'rsatmali o'quv materiallari. Bayon qilishning jonli va ta'sirchan bo'lishi o'ziga tortadi.⁶

Boshlang'ich yoshdagi o'quvchining diqqatiga oid umumiy xususiyatlardan biri diqqatni o'z fikrlari va tasavvurlariga nisbatan tashqi muhitdagi predmetlarga osonlik bilan qaratish qobiliyatidir. Masalan, bir maktabda birinchi sinf o'quvchilariga o'z oila a'zolari va kvartiradagi qo'shnilarini sanab chiqish tavsiya etildi. Bolalar topshiriqni sinfda bajarishni xarakter qilib ko'radilar, keyin bundan bosh tortib: "buni biz hamma to'plaganda uyda yaxshiroq bajaramiz" dedilar. Bu fakt shuni ko'rsatadiki, mana shu yoshda o'z fikrlari va tasavvurlarini bir joyga to'plash qobiliyati xali sust rivojlangan bo'ladi. Bola maktabda ta'lim olishning dastlabki oylarida turli ish xillariga birday diqqat bilan qaraydi, chunki uni ko'proq o'quv materialining mazmuni emas, balki ta'lim jarayoni qiziqtiradi. Lekin muayyan o'quv fani yoki ta'lim ishining turlari bilan shug'ullangan vaqtda uning diqqati sekin asta – ancha to'plangan bo'lib boradi. Bu hol o'quvchining xilma-xil qiziqishlarining rivojlanishiga bog'liq.

Shunday qilib jayji bolalarda ixtiyorsiz diqqat katta rol' o'ynasa xam, maktabgacha yoshdayoq ularda ixtiyoriy diqqat rivojlana boshlaydi. Bu diqqat tarbiya natijasi, bolalarning kattalar bilan aloqada bo'lishi, ular bilan birgalikda ishlashi

⁶ V.Karimkova "Psixologiya" Toshkent 200y (80b).

natijasidir. Diqqatning ba'zi bir xususiyatlari bor bo'lib bu xususiyatlar xar xil odamlarda turli darajada ko'zga tashlanadi. Ba'zan odam ishga yoki kuzatishga shu qadar berilib ketadiki, shundan boshqa xech bir narsani sezmay qo'yadi. Diqqatning bu xususiyati diqqat yo'naltirilgan tomondagi narsalardan birontasini ajratib olishdan iborat bo'lib diqqatning to'planishi deb ataladi.

Diqqatning barqarorligi uncha muncha ta'sirlarda chalg'imasligi uning muxim xususiyatlarida xisoblanadi, diqqatning shu xususiyati tufayli odam o'z diqqatini uzoqroq vaqt davomida biron bir narsa yoki ish ustida to'plab tura oladi. Diqqatning taqsimlash odamning bir yo'la bajarilishi zarur bo'lgan amallardan aqalli bittasini puxta bilishi katta axamiyatga egadir. Odatda odam o'z diqqatini bitta ish ustida to'plab turadi, qolgan boshqa amallar deyarli avtomatik ravishda bajariladi.

Faoliyat jarayonida odam o'z diqqatini bir ob'yektdan ikkinchisi ikkinchi ob'yektga bir ishdan ikkinchi boshqa ishga ko'chirishga majbur bo'ladi, ongli ravishda diqqatni yangi ob'yektga qaratish diqqatning ko'chirilishi deb ataladi, diqqatning muvaffaqiyatli kuchi avvalgi ko'chishi va yangi faoliyatning xususiyatlariga xamda odamning shaxsiy sifatlariga bog'liqdir. Agar avvalgi ish ishtiyoq bilan bajarilgan bo'lsayu, keyin faoliyat kishida unchalik qiziqish uyg'otmasa unda diqqatni ko'chirish qiyinchilik bilan boradi. Aksincha agar odam yangi ishga ishtiyoq bilan kirishsa, diqqati xam oson ko'chadi.

Ko'pincha bolalarning ixtiyoriy diqqatni saqlashlari qiyin bo'ladi, bunga sabab faqat ularning irodaviy zo'r berishga o'rganmaganligi emas, balki ularga sabr-toqat bilan shoshilmasdan ishlash ko'nikmasining yetishmasligidir. Bu xol ayniqsa bolalar masalaning shartlarini uqub olishlari lozim bo'lganda seziladi. Agar darsda ham, uyda ham o'quv topshiriqlariga diqqat bilan qaralmasa, ular bajarilmaydi. O'quvchi sekin-asta diqqat bilan ishlashga o'rganadi, unda ixtiyoriydan so'nggi diqqat ham rivojlanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchisining diqqat-e'tiborini o'zi idrok etayotgan narsaga yoki bajarayotgan ishiga to'play olmas ekan, unda hech bir pisixik protsess maqsadga yo'naltirilgan va unumli bo'la olmaydi. Biz biron bir predmetga qarab tursak ham, uni ko'rmasligimiz mumkin yoki u narsa ko'zimizga g'ira-shira chalinib qolishi mumkin. O'z fikr-muhokamalari bilan band bo'lgan o'quvchi yaqin atrofdagi

kishilarning gaplarini mutlaqo eshitmaydi, garchi ularning ovozi qulog'iga kirayotgan bo'lsa ham, ulardan bexabar qoladi. O'quvchi diqqatini biron boshqa narsaga qaratilgan bo'lsa, dars jarayonida o'tilayotgan mavzuga etiborsiz bo'ladi. Aksincha o'quvchi biron-bir predmet yoki faoliyatga butun diqqat-e'tiborini qaratib, bu holda o'quvchi predmetning miridan-sirigacha bilib oladi va ishi ham juda unumli bo'ladi. Diqqatimizni sezgilarimizga qaratish bilan biz o'z sezgilarimizni kuchaytiramiz.

Hushyorlik qobiliyati ba'zan tevarak-atrof muxitdagi sal-pal o'zgarishlarga reaksiya qilishning sababi retikulyar formatsiyani katta yarim sharlar po'stlog'ining turli uchastkalari bilan bog'lovchi nerv yo'llari to'qimasining miya katta yarim sharlarida mavjudligidadir. Bu to'qimalar orqali keluvchi nerv impul'slari sezgi organlari yo'llovchi signallar bilan birgalikda paydo bo'ladi va miya po'stlog'ini qo'g'atadi, uni yana kutilgan qo'zg'atuvchilarga reaksiya qilishga tayyor turish holatiga keltiradi. Shunday qilib diqqatning dastlabki fizalogik asosi hisoblanmish oriyentirovka refleksining zohir bo'lishiga retikulyar formatsiya analizatorlar bilan birgalikda shart-sharoit yaratadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida diqqatni irodaviy zo'r berish boshqarish va favqulodda vaziyatga moslash imkoniyati yaxshi bo'lmaydi. Buning asosiy sababi ularda ixtiyoriy diqqatning kuchsizligi va beqarorligidir. Shu bilan birga kichik maktab yoshidagi bolalarning ixtiyoriy ongli diqqati o'qish motivlari bilan uzviy bog'liq xolda namoyon bo'ladi. Odatda ularning o'qish motivlari uzoqni ko'zlagan va maqsad bilan bog'liq motivlarga ajratiladi. Yuqori sinf o'quvchilarining bilim olish motivlari uzoqni ko'zlagan motivga kirsam boshlang'ich sinf o'quvchilarining motivlari voqiylikka va reallikka bog'liq motivlardir.⁷

Tajribadan ma'lumki bolalarda ixtiyorsiz diqqat durustgina rivojlangan bo'ladi. Chunki ta'lim jarayonida ixtiyorsiz diqqatning o'sishi uchun muhim shart sharoitlar mavjuddir. Boshlang'ich o'quv materiallarining yaqqolligi yorqinligi jozibadorligi o'quvchida beixtiyor his tuyg'ular uyg'otadi irodaviy zo'riqishsiz osongina fan asoslarini egallash imkonini yaratadi. O'quv materiallarining turli tumanligi ixtiyorsiz diqqatning to'planishi markazlashuvi va barqarorligiga ijobiy ta'sir etadi. Kichik

⁷ X.Ibragimov, U.Yo'ldoshev, X.Bobomirzayev "Pedagogik psixologiya" Toshkent 2007.

maktab yoshidagi bolalarni o'qitishda ko'rsatmalilikdan keng foydalaniladi. Bu tadbir birinchidan bolalar faolligini oshirsa ikkinchidan materialni mantiqiy jixatdan o'zlashtirishga uni taxlil yetish mavhumlashtirish va umumlashtirishga to'sqinlik qiladi. Ularda ko'rsatmalilikka asoslangan dinamik steryotip paydo bo'lishi ham mumkin. Sun'iy to'siqlar halal beruvchi alomatlardan qutulish uchun yaqqol va mavhum materiallardan aralash xolda foydalanish yaxshi natija beradi. Bolaning ko'rsatmalilikka berilib ketishi uni asosiy maqsaddan uzoqlashtiradi bola tashqi belgilarga ye'tibor berishga odatlanib ichki muhim belgilardan chetlasha boradi.

Ma'lumki ixtiyorsiz diqqat ta'lim jarayonida o'quvchilarning qiziqishi bilan bevosita bog'lanib ketsa tabiiyki ular faqat maroqli quvonchli axborot va matnlar bilan tanishishga intiladigan bo'lib qoladilar. Natijada o'ta nozik yani tashqi qo'zg'atuvchilar ta'siriga beriluvchi diqqat ularning psixikasida mustahkamlanadi. Odatlanish murakkab o'quv materiallarini yegallashda qiyinchiliklar tug'diradi. Shuning uchun K. D. Ushunskiy bolani faqat o'zi qiziqtirgan narsa bilan yemas balki uni qiziqtirmagan narsa bilan shug'ullanishga o'rgating bola o'z burchini bajarishdan qanoatlanish uchun ishlaydigan bo'lsin deb uqtirgan yedi. Qator tadqiqotlar birinchi va ikkinchi sinf o'quvchilari darsda faqat 30-35 daqiqa diqqat bilan o'tirishi o'z diqqatini muayyan ob'yektga to'plashi va unda ushlab turushi mumkinligini ko'rsatadi. Shuning uchun mashg'ulotlarda qisqa tanaffuslar o'tkazib turish maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim jarayoni kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ixtiyoriy barqaror mustaxkam kuchli to'planuvchan taqsimlanuvchan faol ongli diqqatni rivojlantirishga qulay shart sharoit yaratadi. Bilim olish uchun mustaqil aqliy mehnat qilish va masalalar yechish mashqlarni bajarish takrorlash irodaviy zo'r berishda ixtiyoriy ongli diqqat tarkib topadi. Shuningdek uning yeng zarur xususiyatlari takomillashadi. Bu yesa ongli boshqarish imkoniyatini beradi. Bolalarning diqqati o'qish faodiyatiga doir maqsadga muvofiq ijtimoiy motivlar hamda ularda paydo bo'layotgan yangi hislatlar(ma'suliyatlilik javobgarlik uyalish hislari) bilan bir paytda rivojlanadi. Bu yoshdagi bolada ixtiyoriy diqqatni jamlash tashkil qilish zarur bo'lsa uni taqsimlash tashqi qo'zg'atuvchilarning qarshiligini yengib ongli ravishda boshqarish uquvi shakllana boshlaydi.

Agar o'quvchi barcha ishlarni diqqat bilan bajarishga odatlansa, diqqat doimiy xususiyatga aylanib, diqqat-e'tiborlik darajasiga ko'tariladi, bu esa shaxsning fazilati sifatida, o'quvchining umumiy psixik qiyofasida katta ahamiyatga egadir. Bu fazilatga ega bo'lgan har bir o'quvchi o'zining kuzatqichanligi, tevarak-atrofni yaxshi idrok qila olish qobiliyati bilan ajralib turadi. Diqqat-e'tiborli odam hodisalarga tez javob qaytaradi va ularni ko'pincha chuqur xis qiladi, o'qish-o'rganishga katta qobiliyatligi bilan ajralib turadi, qiziqishlari doirasi odatda e'tiborsiz o'quvchilikiga qaraganda keng bo'ladi. Diqqat-e'tiborlilik diqqat xususiyatlari: Diqqat ko'lami, To'planishi, barqarorligi va taqsimlanishining yuksak darajada o'sgan bo'lishi bilan bog'liqdir. Diqqat-e'tiborlilik fazilatiga ega o'quvchi o'z diqqatini nuqtaga tezda to'play oladi, unda ixtiyoriy diqqat yaxshi rivojlangan bo'ladi. Hatto ishga qiziqishi bo'lmagan taqdirda ham diqqat-e'tiborli o'quvchi ixtiyoriy diqqatni tezda ishga sola oladi, og'ir va qiziqarsiz mashg'ulotga o'zini jazo etishga majbur qila biladi.⁸

Umuman hamma narsaga emas, balki muayyan narsa va hodisalarga nisbatan diqqat-e'tiborlilik shaxsning yo'nalishidan dalolat beradi. Diqqat-e'tiborlilik o'quvchining barcha psixik protsesslariga muayyan tus berish bilan birga, uni ma'lum darajada yaxlit shaxs sifatidagi qiyofasini ham belgilaydi. Bir xil o'quvchi borki hamma narsaga juda qiziquvchan, tezda uqub oluvchan, topqir bo'ladi, boshqa bir o'quvchi aksincha, butun diqqat-e'tiborini aniq bir sohaga yo'naltiradi, uchinchi xil o'quvchi esa goh u ish bilan goh bu ish bilan umrini o'tkazadi. Shularni ko'rib biz ular xarakteri va tempramentining ko'pgina tomonlari shaxsiy fazilat bo'lmish diqqat-e'tiborlilikning rivojlanishi bilan bog'liqligi haqida xulosa chiqara olamiz. Nihoyat bu xususiyat o'quvchining ahloqi sifati xam bo'lishi mumkin, zotan bu sifat odamlarga diqqat-e'tibor bilan munosabatda bo'lishda, ischillikda boshqa o'quvchilar to'g'risida g'amxo'rlik qilishda, boshqa o'quvchining fazilatlarini, talablarini, manfaatlarini, extiyojlarini tushinishda foydalanadi. Aksincha, ba'zan ukuvchining o'zgalarga nisbatan bag'ri tosh. Bemexr bo'lishining sababi shundaki, u o'zgalarning xolatini sezmaydi va shu tufayli ularga xamdardlik qila olmaydi xolos.

⁸ M.E.Zufarova "Umumiy psixologiya" Toshkent 2008.(190b)

1.2. Bilish jarayoni sezgi to'g'risida umumiy tishuncha

Jahon psixologiyasi fanida to'plangan ma'lumotlarning ko'rsatishicha, sezish oddiy psixik bilish jarayoni hisoblanib, moddiy qo'zg'atuvchilarning muayyan retseptorlarga bevosita ta'sir etishi orqali real olamdagi narsa va hodisalarning ayrim xususiyatlarini va shuning bilan birga, inson organizmining (uning a'zolarining) ichki holatlarini aks ettirishdan iborat bilishning dastlabki bosqichidir. Sezgi biosfera va neosferada harakatlanuvchi jamiki narsalarning, xoh mikro, xoh makro tuzilishidan qat'i nazar, sezgi organlariga ta'sir qilish mahsulasi sodir obrazlar, timsollarning ayrim tarkibiy xususiyatlar tariqasida aks etishidir. Inson atrofmuhitdagi moddalar shaklini, harakatlar ko'rinishini, ularning xossalari o'ziga xos xususiyatlarini sezgi organlari yordamida, sezgilar orqali biladi, xolos.

Sezgilar to'g'risidagi ilmiy ta'limotlarga binoan narsalar va ularning xossalari, tarkibiy qismlari, xususiyatlari, shakllari, harakati birlamchi hisoblanib, sezgilarning o'zi esa tashqi va ichki qo'zg'atuvchilarning sezgi a'zolariga ta'sir etishining mahsulidir. Ma'lumotlarning ko'rsatishicha, sezgilar moddiy (ob'ektiv) borliqning, voqelikning haqqoniy tasvirini in'ikos qiladi, binobarin, moddiy olam qanday ko'rinishga, shaklga, xususiyatga ega bo'lsa ular xudsi shundayligicha hech o'zgarishsiz, aynan aks ettirish imkoniyatiga egadir.

Sezgilar to'g'risidagi ilmiy ta'limotlarga binoan narsalar va ularning xossalari, tarkibiy qismlari, xususiyatlari, shakllari, harakati birlamchi hisoblanib, sezgilarning o'zi esa tashqi va ichki qo'zg'atuvchilarning sezgi a'zolariga ta'sir etishining mahsulidir. Ma'lumotlarning ko'rsatishicha, sezgilar moddiy (ob'ektiv) borliqning, voqelikning haqqoniy tasvirini in'ikos qiladi, binobarin, moddiy olam qanday ko'rinishga, shaklga, xususiyatga ega bo'lsa ular xudsi shundayligicha hech o'zgarishsiz, aynan aks ettirish imkoniyatiga egadir.

1) tats[^]qi kuchquvvatni (energiyani) asab (nerv) jarayoniga aylantirib beruvchi periferiya qismdan, ya'ni retseptordan;

2) analizatorlarning periferiya qismini markaziy qism bilan bog'lovchi afferent (markazga intiluvchi asab tolasi), o'tkazuvchi asab yo'llaridan;

3) periferiya qismlaridan keluvchi nerv impulslari (harakatlari) qayta ishlanuvchi analizatorlarning miya po'stidagi qismilri dan (uchastkalaridan) iboratdir.

Boshqacha so'z bilan aytganda, periferik nervlarning uchlari (khm, quloq, teri, burun kabilar), ta'sirotni eltuvchi (afferent), j;sho(> qaytaruvchi (efferent) nerv tolalari, analizatorlarning orqa va bosh miya markazlari analizatorni tashkil qiladi.

Jahon psixologiyasi fanining so'nggi yutuqlari hamda atamalariga binoan sezgilar quyidagicha klassifikatsiya qilinadi (ushbu tasniflanishning dastlabki ko'rinishi ingliz olimi Ch. Sherringtona taaluqlidir);

1) tashqi muhitdagi narsa va hodisalarning xususiyatlarini aks ettirishga moslashgan hamda retseptorlarga tananing sirtqi qismiga joylashgan sezgilar, ya'ni eksterioretseptiv sezgilar (retseptorlar);

2) ichki tana a'zolari holatlarini in'ikos etuvchi hamda retseptorlari ichki tana a'zolarida, to'qimalarida joylashgan sezgilar, ya'ni interoretseptiv sezgilar;

3) tanamiz va gavdamizning holati hamda harakatlari haqida ma'lumot (axborot, xabar) beruvchi, muskullarda, bog'lovchi paylarda, mushaklarda joylashgan sezgilar, ya'ni proprioretseptiv sezgilar.

Birinchi turkum sezgilarni ko'rish, eshitish, hidlash, terituyush, ta'mmaza, kabi turlar tashkil qiladi. Ko'rish 380 dan 770 gacha millimikron diapazondagi elektromagnit nurlardan iborat jarayondir. Eshitish esa tebranish chastotasi 16 dan to 20000 gacha bo'lgan tovush to'lqinlarvdan iboratdir. Ko'rish sezgilari bosh miya po'stini tepa burmasining qismida joylashgan bo'dadi. Terituyush, xarakat sezgilari miya po'stini markaziy burmasining orqa qismidan o'rin olgandir.

Endi sezgilar klassifikatsiyasi, mohiyati va uning negizlari yuzasidan kengroq mulohaza bildiramiz.

A. R. Luriyaning fikricha, interoretseptiv sezgilar asl, tub ma'nodagi sezgilar emas, balki emotsiyalar bilan sezgilar o'rtasidagi oraliq sezgilar sifatida namoyon bo'ladi. Psixologiya fanida mazkur sezgilarning sub'ektiv ravishda paydo bo'lishi etarli darajada chuqur o'rganilmagan, xuddi shu bois ular «noma'lum hislar» doirasiga kiritilgandir. Ular to'g'risidagi bilimlar bilan tanishish, o'zgarib borishlarini tekshirish «kasalliklarning ichki maizarasi»ni ifodalab berishda muhim rol o'ynashi mumkin.

Ichki organlarning xastaligida vujudga keluvchi mazkur holatlar ichki kasalliklarni diagnostika qilishda alohida ahamiyat kasb etishi turgan gap (A. R. Luriya tadqiqotlaridan).

Bunday xususiyatli ixtiyorsiz sezgilar insonda juda erta uyg'onadi, shuning bilan birga ularning ifodalanishi o'ziga xos shakllarga egadir. Chunonchi, ular »oldindan his qilish» tariqasida paydo bo'lib, hatto inson ularni ta'riflab berish imkoniyatiga qodir emas, ko'pincha ushbu kechinmalar tush ko'rishda qaysidir kasallik huruj qilayotganligidan darak beruvchanlik vazifasini o'tmaydi, xolos.

Ular insonning kayfiyatida, emotsional reaksiyalari o'zgarishida ko'zga tashlanadi, bolada esa xatti-harakatning keskin o'zgarishiga sabab bo'ladi. Chunki, bola o'z tana a'zolaridagi ichki holatlarning o'zgarishini anglash, sezish, his qilish uquviga ega emas, xuddi shu tufayli undagi xatti-harakatning umumiy o'zgarishi belgilaridan buni sezish mumkin. Bu hodisalarning yorqin misoli sifatida quyidagi voqelikni taxlil qilamiz: bola o'z ichki interoretseptiv sezgilarini namoyish qilish maqsadida «kasal» bo'lib qolgan qo'g'irchog'ini parvarish qila boshlaydi.

Interoretseptiv sezgilarning ob'ektiv ahamiyati juda yuqori, chunki ular ichki jarayonlarni o'zaro o'rin almashtirish balansini ta'minlab turishning asosi hisoblanadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, ular organizmlardagi jarayonlarni o'zaro o'rin almashib turishining gemostazi (barqarorligi) deb ataladi. Ichdan paydo bo'ladigan signallar xatti-harakatni vujudga keltiradi, stress, zo'riqish, affekt holatlarini yo'qotish (bartaraf qilish, pasaytirish), tug'ilib kelayotgan mayllarni esa qoniqtirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Oqibat natijada, ichki tana a'zolarining faoliyatini izdan chiqish holati yuz berishi mumkin. Xuddi shu sababdan tibbiyot psixologiyasida interoretseptiv sezgilar ham muhim rol o'ynaydi. Somatik va visperal jarayonlar, ruhiy holatlar (psixosomatika) o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish imkonini yaratadi.

Interotseptiv sezgilarning fiziologik mexanizmlari interotseptsiya bilan birgalikda K. M. Bikov, V. N. Chernigovskiylar tomonidan atroflicha o'rganilgan. Bu narsalarning barchasi shartli reflektor faoliyati mexanizmlaridan kelib chiqqan holda sharxlab berilgan.

Proprioretseptiv sezgilar tana dvigatel apparatining va gavdaning fazodagi holati to'g'risida signallar bilan ta'minlab turadi. Ular inson harakatining regulyatorini va afferent asosini tashkil qiladilar.

Periferik retseptorlar muskullarda, paylarda va bo'g'implarda joylashgan bo'lib, maxsus tanachalari shakliga egadirlar. Mazkur tanachalar Puchchini tanachalari deb ataladi.

Tanachalarda vujudga keluvchi qo'zg'atuvchilar muskullarinipg taranglashuvi natijasida va bo'g'implar holatining o'zgarishida, nsrv tolalari (iplari) yordamida orqa miyaning orqa ustunidagi (stolPa sidagi) oq suyuqliklarga etkaziladi. qo'zg'ovchilar Burdax va Goll yadrosining quyi bo'limlariga etib keladi va undan po'stosti tugunlaridan o'tib, bosh miya katta yarim sharining qorong'ilashgan zonasida o'z harakatini yakunlaydi.

Proprioretseptorlar harakatining afferent asosi ekanligi A. A. Orbeli, P. K. Anoxin (hayvonlarda), N. A. Bernshteyn (odamlarda) tomonidan o'rganilgan.

Psixologik ma'lumotlarga ko'ra, gavdaning fazodagi holati sezgirligi statik sezgilarda o'z ifodasini topadi. Uning markazi ichki quloq kanallarida joylashgan bo'lib, o'zaro bir-biriga perpendikulyar bo'shliqda tutash holatda yotadi. Masalan, bosh holatining o'zgarishi quyidagi sxemaga binoan amalga oshadi:

- a) o'zgarish endolimfa suyuqligiga bog'liq qo'zgalish;
- b) eshitish nervi;
- v) vestibulyator nerv;
- g) bosh miya po'stining chakka bo'lmasi;
- d) miya apparatiga o'tadi.

Vestibulyator sezgirlik apparati qurish bilan bevosita aloqada bo'lib, fazoni orientirlash jarayonida ishtirok etadi. Masalan, avtomobilning yo'ldan o'tishi (qatnovi), qalin o'rmonni kesib o'tish payti va hokazo. Xuddi shunday holat uchishda ham yuzaga kelishi mumkin. Patologiya holatida ham xuddi shunday jarayonga duch kelinadi.

Ekstroretseptiv sezgilar moddalikdan (5 tadan) tashqari intermodal nospetsifik sezgi turkumlariga ham ajratiladi. Masalan, eshitish organi (a'zosi) orqali sekundiga

10—15 tebranishni sezish mumkin, lekin quloq bilan emas, balki suyaklar yordamida (miya qopqog'i, tirsak, tizza uchlari orqali) payqash — vibratsiya sezgirlik deyiladi. Masalan, karlarning tovushlarning idrok qilishi, pianinoni ushlab turish, pol yoki mebelning harakati kabilar. Odatda, vibratsion sezgirlik intermodal sezgi deb ham nomlanadi. Intermodalning boshqa bir ko'rinishi mana bunday holatda namoyon bo'ladi:

- a) hid, ta'm va maza sezgilarida;
- b) o'ta kuchli tovushda, o'ta yorqin yorug'likda;
- v) tricheminal, ya'ni uch xil ta'sirning uyg'unlashgan, integrativ holatida kabilar.

Sezgining nospetsifik shakli — terining foto sezgirligi ranglarning nozik jilolarini ajratish, qo'l uchlari bilan sezish orqali ro'yobga chiqadi. Terining foto sezgirligi A. N. Leontev tomonidan kashf qilingan bo'lib, bu narsa ko'pgina holatlarga oqilona yondashish imkoniyatini vujudga keltiradi. Ushbu kashfiyot qo'l uchiga yashil va qizil rangli yorug'lik yuborish orqali dunyo yuzini ko'rgan. Rang signallarining og'riq qo'zg'atuvchilar bilan munosabati qiyosiy jihatdan olib borilganda, insonni faol mo'ljallash (orientirlash) jarayonida uning qo'l uchi terisiga kelib tushadigan rang nurlarini farqlashga o'rgatish mumkin ekan.

Psixologiya fanida trening foto sezgirligi tabiati hali etarli darajada o'rganilgani yo'q. Shunga qaramasdan, talamitik tizim va po'st ostining qo'zg'alganida asab tizimi hamda teri ektodermalaridan kelib chiqqan, atrofga yoyilgan (tarqalgan), rudimentlar yorurlik sezish elementlari maxsus sharoitda muvaffaqiyatli harakat qiladi. Ko'pincha «oltinchi tuyg'u, hissiyot» sharofat bilan inson tomonidan «masofa»ni sezish, ko'r odamlarda to'siqni his qilish ushbu jarayon uchun yorqin misol bo'la oladi. Ehtimol, yuz terisining issiq havo to'lqinlarini idrok qilish, to'siq oralig'ida mavjud bo'lgan tovush to'lqinlarini (tebranishlarini) o'zida aks ettirish terining foto sezgirligini ilmiy jihatdan izoxlashga muayyan negiz (asos) bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Sezgi deb atrofimizdagi narsa va hodisalarning sezgi a'zolarimizga bevosita ta'sir etishi natijasida ularning ayrim belgi va xususiyatlarining miyamizda aks ettirilishiga aytamiz. Odamning tashqi dunyoni idrok qilishi sezgidan boshlanadi. Shuning uchun sezgilar o'z mohiyati jihatidan shaxsning barcha bilimlari uchun asos

va manba hisoblanadi. Odam sezgilarisiz tashqi dunyo predmetlari va voqealarini bilish imkoniyatlaridan maxrum bo'lgan bo'lur edi. Chunki idrok, xotira, tasavvur, tafakkur va hayol kabi ruhiy jarayonlar sezgilar tufayligina hosil bo'ladi.

Sezgi eng oddiy, biroq shu bilan birga, juda muxim psixik jarayondir. Bu barcha bilimlarimizning dastlabki manbaidir. Atrofdagi dunyoni bilish sezgidan boshlanadi.

Sezish – oddiy psixik jarayon bo'lib, moddiy qo'zg'atuvchilarning tegishli repseptorlarga bevosita ta'sir etishi yuli bilan moddiy dunyodagi narsa va xodisalarning aloxida xususiyatlarini va va shuning bilan birga, organizm ichki xolatining aks ettirilishidan iboratdir. «Sezgi – materiyaning sezgi organlarimizga ta'sir etishi natijasidir».

Sezgilar uz moxiyati jixatidan bir muncha soda psixik jarayon bulishiga qaramay barcha bilimlarimizning asosi va manbayi xisoblanadi. Chunki narsa va xodisalarni aks ettirishning kupchilik kismi sezishdan boshlanadi. Agar sezgilarimiz bo'lmagan tevarak-atrofni narsa va xodisalarni aks ettirishdan ularni bilishdan maxrum bo'lgan bulardik. Sezgi organiga ta'sir etib, sezgini vujudga keltiradigan xar bir narsa qo'zg'ovchi deb ataladi. Uning ta'siri esa qo'zg'alish deb yuritiladi.

Sezgi jarayoni kuyidagicha ruy beradi.1)narsa yoki xodisalar sezgi organlariga (retseptorga) ta'sir etib, tegishli sezuvchi nervning cheka perefirik uchlarini qo'zg'aydi.

2)shu yerda kelib chikkan qo'zg'alish usha nervning utkazuvchi yuli orqali bosh miya pustining tegishli markaziy xujayralar sistemasiga utadi.

3) bu yerda nerv qo'zg'alishi psixik xodisaga , ya'ni sezgiga aylanadi.

Xaar bir sezgi odatda xush yoki noxush tuygular bilan bog'langan bo'ladi. Bu sezgining xissiy yoki emotsional toni deb ataladi. Masalan shirin narsa kishiga xuzur beradi.taxir bemaza narsa kishini bexuzur qiladi. Sezgi moddiy dunyoni bilishning birinchi boskichidir. Sezgilar to'g'risidagi ilmiy ta'limotlarga binoan narsalar va ularning xossalari, tarkibiy qismlari, xususiyatlari, shakllari, harakati birlamchi hisoblanib, sezgilarning o'zi esa tashqi va ichki qo'zg'atuvchilarning sezgi a'zolariga ta'sir etishining mahsulidir. Ma'lumotlarning ko'rsatishicha, sezgilar modsiy

(ob'yektiv) borliqning, voqelikning haqqoniy tasvirini in'ikos qiladi, binobarin, moddiy olam qanday ko'rinishga, shaklga, xususiyatga ega bo'lsa ular xudsi shundayligicha hech o'zgarishsiz, aynan aks ettirish imkoniyatiga egadir.

Sezgi boshqa jarayonlarga nisbatan oddiy jarayon bo'lib, bu jarayonning mohiyati moddiy qo'zg'atuvchilarning tegishli reseptorlariga ta'sir etish yo'li bilan moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning ayrim xossalarini aks ettirishdan iborat. Sezgilar materiyaning sezgi organlarimizga ta'siri natijasidir. Sezgi a'zolari informasiyalarni qabul qilib, tanlab, to'plab, har bir sekundda bepayon informasiyalar oqimini qabul qilib va qayta ishlab miyaga yetkazib beradi. Natijada tevarak-atrofdagi tashqi olamning va organizm o'z ichki holatining adekvat "Mos" aks eggirishi hosil bo'ladi. Sezgi a'zolari tashqi olamning inson ongiga olib kiradigan birdan- bir kanallardan iboratdir. Agar odam sezgi organlaridan mahrum bo'lib qolsa, u paytda u atrofda nima bo'layotganini bila olmas, ovqatlanish uchun o'ziga ozuqa topa olmas edi.

Mashhur rus vrachi S. P. Botkin yolg'iz bitta ko'zi va qo'lining uncha katta bo'lmagan qismida to'yish sezgisidan tashqari hamma sezgilaridan mahrum bo'lgan kasal haqidagi noyob bir hodisani tasvirlab bergan, bemor ko'zlarini yumgan paytda uning qo'lga hech kim tegmasa, u uxlab qolgan. Sezgilar haqidagi ta'limotga ko'ra, narsalar va ularning xususiyatlari birlamchi bo'lib, sezgilar esa materialning sezgi a'zolariga ta'siri natijasidir. Sezgilar olam qanday mavjud bo'lsa shushandayligicha aks ettiradi. Sezgilar haqiqiylikining mezoni amaliyot, sub'yektning faoliyatidir. Sezgilar bilishning asosiy manbaidir. Sezgilar ob'yektiv olamning sub'yektiv obrazidir. Sezgilarning hosil bo'lishi uchun faqat tashqi qo'zg'atuvchining ta'siri emas, balki organizmning o'zi ham faoliyatda bo'lishi kerak.

Sezgi retseptorga ta'sir ko'rsatib, maxsus energiyasining nerv jarayonining energiyasiga aylanishidan hosil bo'ladi. Sezgi faqat hissiy organning komponentigina emas, balki faoliyat komponentidir. Sezgi psixik hodisa bo'lib, agar javob reaksiya bo'lmasa yoki javob reaksiyasi adekvat "Mos" bo'lmasa hosil bo'lmaydi. Sezgi organlari harakat organlari bilan bog'liqdir. Sezgi psixik hodisalar kabi reflektor harakterga egadir. Sezgilarning fiziologik asosini qo'zg'atuvchining o'ziga adekvat

bo'lgan analizatorga ta'sir natijasida yuzaga keladigan nerv jarayoni tashkil etadi. Analizator I. P. Pavlov tevarak-atrof voqeligini tahlil qilish uchun organizmning murakkab suratda moslanganiga aytadi.

II.BOB. Kichik maktab yoshi o'quvshilarining rivojlanishida sezgi hususiyatlarining o'ziga hos jihatlari

2.1. O'quv jarayonida bilish jarayoni sezgilarining ahamiyati

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining kelajagi ko'p jixatdan yosh avlodning qanday tarbiyalanishiga bog'liqdir. Bu o'z navbatida ta'lim tizimining samarali va serqirra usullarini belgilash va ayniqsa, kichik yoshdagi bolalarimizni boshlang'ich maktab ta'limiga talab darajasida tayyorlash muammosini ijobiy hal etish vazifasini qo'ymoqda.

Maktab dasturlarining o'zgarishi bilan bog'liq xolda maktabga kelayotgan bolalarning rivojlanish darajasiga talablar ortib bormoqda. Bu rivojlanish darajasi maktabda o'qishga tayyorgarlik bilan belgilanadi.

Maktabga borganda bola hayot tarzi o'zgaradi. Unda atrofdagi odamlar bilan yangicha munosabat tizimi paydo bo'ladi, faoliyatining yangi formalari shakllanadi. Yangi hayot tarzi yangi faoliyat shakllarini amalga oshirish uchun bolada irodaviy tayyorgarlikni (bolalarda o'z xulqini, bilish faoliyatini boshqarishni, uni o'quv malakalariga yo'naltirishni bilishlari lozim) tarbiyalash, o'zida axloqni, motivatsion tayyorgarlikni, o'z-o'zini nazorat qilish malakalarini mujassamlashtirgan psixologik tayyorgarlikka ahamiyat berish lozim.

Shuningdek, bolalarni maktabda o'qishga tayyorgarlik ularning bilish faoliyati rivojlanishi darajasiga bog'liq, bilish jarayonining rivojlanish darajasi qancha yuqori bo'lsa, bolalar tomonidan o'zlashtirilayotgan bilimlar sifati shuncha yaxshi bo'ladi, Bolani maktabda o'qishga tayyorlashda uning aqliy jihatdan tayyorligi 3 ta asosiy komponentdan, ya'ni: uni o'rab turgan tabiat odamlar hayoti, san'at dunyosi haqidagi bilimlarni o'zlashtirish; unda sezgi, xotira, diqqat, nutq va tafakkur kabi ruhiy jarayonlarning ma'lum darajada rivojlanganligi, va nihoyat, bolada, o'qituvchilari aytganidek o'qish faoliyati elementlaridan iborat.

Bolalarga tabiat hodisalari va atrofdagi hayot haqida bilimlarni berish va ularga tegishli fikrlarni shakllantirish, ularni maktabga tayyorlashda juda katta ahamiyat kasb etadi.

Ma'lum darajadagi bilim mazmunida fikrlash sifatini taxlil (analiz) qilish, solishtirish, umumlashtirish qobiliyatlari shakllanadi. Boshqacha qilib aytganda, tegishli bilimlarga ega bo'la turib, bola aqliy jihatdan rivojlanmaydi. Ammo ko'pchilik maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi yuqorida ko'rsatib o'tilgan talablarga javob bermaydi. Bolani maktabda o'qishga tayyorlashda ota-onalar, bog'chadagi tarbiyachilar ishtirok etadilar. Bolalar bog'chasi dasturlarida bolalarni maktabga tayyorlash uchun alohida ahamiyat berilgan. Lekin dastur faqat ko'rsatmagina beradi, xolos. Bolani maktabda o'qishga tayyorlashning takomillashtirilgan usullari, yo'llarini ishlab chiqish hozirgi vaqtda alohida ahamiyat kasb etmokda.

Bundan tashqari, hozirgi vaqtda respublikamizda bolalar bog'chasi bilish darajasini belgilaydigan standartlar ishlab chiqarish ko'zda tutilmoqda. Bolalarni maktabda o'qishga tayyorgarliklari standartlarini ishlab chiqish ularning o'qishga tayyorgarliklari turli darajalarini aniqlashga imkon beradi va bolalarni maktabga yo'naltirishda differentsiatsiya qilishga zamin yaratadi.

Ushbu tayyorlangan qo'llanma "5-7 yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorgarliklarini psixologok-pedagogik tekshirish dasturi" standartlari ishlab chiqilishidagi birinchi qadamlardan biridir. Dastur bolalar bog'chalari metodistlari bolalar tarbiyachilari, psixologlar, defektologlar uchun mo'ljallangan.

Tekshirish jarayonida eksperimentator suhbat, kuzatish, savol-javob, baholash usullaridan foydalaniladi.

Maktab yoshida o'qish, jumladan, moddiy narsalarning har xil xossalari bilan tanishish sezgilarning o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Maktab o'quvchilarida, asosan farq farq qilish sezgirligi o'sadi. Ko'rish va eshitish sezgirligi, ayniqsa, tez o'sadi.

7 yoshdan 10 yoshgacha bolalarda 65 foizgacha ortishi olimlarning maxsus tekshirishlarida aniqlangan. Maktab o'quvchilarini rasmga o'rgatish ranglarni ayirish sezgirligining o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Maktab yoshida eshitish sezgilari ham hiyla o'sadi. Ranglarni farq qilish sezgirligi bolalarga ashula o'rgatish munosabati bilan, ayniqsa, kuchli suratda o'sadi.

Maktab yoshida harakat malakalarining vujudga kelishi munosabati bilan muskul harakat sezgirliги ham o'sadi. Maxsus tekshirishlardan olingan ma'lumotlarga qaraganda, 8 yoshdan 14 yoshgacha bolalarda bu sezgirlik 50 foizdan ziyod ortadi.

Odamning mehnat faoliyati sezgilarning o'sishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki biron mahsulotni tayyorlaganda, shuningdek, nazoratdan o'tkazgandamoddiy narsalargabevosita tegish bilan birga, shu narsalarning sezib bilinadigan ayrim xossalariга katta e'tibor berishga to'g'ri keladi, sezgi organlarining farq qilish qobiliyatiga ortiqroq talab qilishga to'g'ri keladi.

Modomiki shunday ekan, maktabda ishlab chiqarish – mehnat ta'limini amalgam oshirish o'quvchilarda sensor sezgirlikning turli tomonlarini o'stirishga yordam berishi shubhasiz.

Sezgilarning o'sishi uchun jismoniy tarbiyaning muhim ahamiyati bor. Masalan, aniq harakatlari qilishga to'g'ri keladigan mashqlar muskul – harakat sezgilarini o'stiradi. Mashq qilish jarayonida sezgilarning hamma xillari o'sadi.

Sezgilarning ochiq – ravshanbo'lishida nutq katta rol o'ynayudi. Sezgilari so'z – ifodalar bilan bog'lansa, ochiq – ravshanroq bo'lib qoladi. Masalan, kuy tonlari tegishli terminlarbilan ifodalanmasa, ularni eshitishda kelib chiqadigan sezgilarni ta'riflab bo'lmaydi. So'z bilan ifodalanmagan narsa umumiy kompleksdan yaqqol ajralib turmaydi. Odamning sezgisi – aniqligi, ravshanligi, differensiallanganligi nutqning taraqqiy etishi bilan o'sadiva ko'p jihatdan nutq tarbiyasiga bog'liq bo'ladi.

Bolalarni to'g'ri tarbiyalash sezgilarning o'sishida katta ahamiyatga egadir. Bolaning sog'ligi va jismoniy tarbiyasi haqida g'amxo'rlik qilish, jumladan, sezgi organlarining va sensor sezgirlikning o'z vaqtida o'sishini ta'minlashdan ham iborat. Sezgilari idrok tarkibigakiradi, shu sababli, bolalarda idrokni o'stirish bilan ularning sezgilarini ham o'stirgan bo'lamiz. Mushohadani, kuzata bilishni tarbiyalash – sezgi organlarini ham tarbiyalash demakdir, farq qilish sezgilarini ham o'stirish demakdir.

2.2. Ta'lim jarayonida o'quvshilar sezgilarining o'rganilishi.

Odamning tegishli organlariga moddiy olamdagi narsa va hodisalar ta'sir ko'rsatgan paytida ulardagi ayrim xossalarning aks ettirilishidan iborat bo'lgan eng sodda psixik protsess sezgi deb ataladi.¹⁰

Amaliy nutqimizda shunday iboralar uchrab turadi "Men og'riqni xis qilyapman; u totli mazani his qiladi; bu odam yaxshi rivojlangan his etish organlariga ega". Tilimizdagi shunga o'xshash iboralar xali fanda "hissiyot" va "sezgi" tushunchalari bir-biridan aniq farq qilmagan davirlardan saqlanib qolgan. Endilikda biz ularning turli xildagi psixik protsesslari ekanligini yaxshi tushunamiz, binobarin endilikda og'riq, ta'm-maza hissi deb emas balki og'riq sezgisi, ta'm-maza sezgisi deb atash to'g'ri hisoblanadi. Xuddi shuningdek his organlari deb emas, balki to'g'rirog'i sezgi organlari deb atash kerak. Ammo psixologiyada odat tusiga kirib qolgan iboralardan hanuzgacha foydalanib kelinmoqda.

Sezgi protsessi qanday sodir bo'ladi? Sezgilar hamisha bizning sezgi organlarimizga: ko'zimizga quloqlarimizga, terimizning ustiga va boshqa organlarimizga tashqi qo'zg'atuvchilar ta'sir ko'rsatishi tufayli vujudga keladi. Chunonchi, yorug'lik nuri ko'zning to'r pardasiga tushishi bilan u yerni qo'zg'atadi, bu qo'zg'alish nerv tolalari orqali miya katta yarim sharlari po'stlog'iga yetib kelgach, odamda ko'rish sezgisi sodir bo'ladi.

Atrof-muhit odamga beqiyos darajada turli-tuman ta'sir ko'rsatib turadi. Yorug'lik hamda havo to'lqinlari issiqlik hamda ul'trabinafsha nurlari va boshqa qo'zg'atuvchilar shular jumlasidandir. Ammo radioapparat qaysi to'lqinlarga moslangan bshlsa, shu to'lqinlarni qabul qilganidek odam organizimi ham son-sanoqsiz tashqi ta'sirlar ichidan qaysi xiliga muvofiq keluvchi "priyomnigi" bo'lsa, faqat shunday xilinigina tutib oladi. Jamiki qo'zg'atuvchilarning barchasi go'yo analiz qilinadi vaularni tegishli apparatlar qabul qiladi. Bu sezgi organlari miya katta yarim sharlari faoliyati bilan uzviy bog'langan bo'lib, nerv sistemasidan iboratdir. I. P.Pavlovning yozishicha katta yarim sharlar qo'zg'atuvchilarni analiz qilish organidir. Shu sababdan

¹⁰ N.Boymurodov "Amaliy psixologiya" Toshkent 2008y.

I.P.Pavlov sezgilarning paydo bo'lishini ta'min etuvchi bvrcha fmzalogik apparatni analizator deb atagan.

Analizatorlar uch qisimdan iborat:

1) tashqi ta'sirni qabul qiluvchi asbob yoki retseptor chunonchi, ko'zning retina yoki setchatka deb ataluvchi nerv hujayralari yorug'likni qabul qiladi va ko'rish retseptori hisoblanadi.

2) o'tkazuvchi nerv yo'llari afferent, markazga intiluvchi nerv yo'llari retseptorda vujudga kelgan qo'zg'alish shu nerv yo'llari orqali miyaga yetkazib beriladi.

3) miya katta yarim sharlari po'slog'ida mahsus hujayralar bo'ladi. Agar analizatorning uchta qismidan bittasi zararlansa, sezgi vujudga kelmasligi mumkin. Masalan, agar ko'z soqqasi tagidagi retina yemirilsa, yoki miyaga boruvchi ko'z nervi, yoxud katta yarim sharlar po'stlog'ining ensa qismidagi ko'rish markazi zararlansa, odam ko'rish qobiliyatini yo'qotadi.

Odamda paydo bo'luvchi sezgilarni uch guruxga ajratish mumkin.

A) Tanamizning tashqi tomoniga joylashgan sezgi organlari eksterotseptorlar orqali vujudga keluvchi sezgi organlari kiradi. Bu sezgilar bizda tashqaridagi narsalarning xususiyatlarini aks ettiradi. Ko'rish eshitish, hid bilish, maza, teri va tuyish sezgilari shunday sezgilar jumlasidandir.

B) Retseptorlari ichki organlarga joylashgan sezgi organlari orqali vujudga keluvchi sezgilar kiradi. Organik sezgilar deb ataluvchi sezgilar qorin ochlikni, chanqashni sezishni bildiradi.

V) Harakat yoki kinestetik sezgilar kiradi, bu sezgilar harakatlar va gavdaning fazodagi holati bilan bog'liqdir. Harakat analizatorlarining retseptorlari muskullarda va paylarda joylashgan bo'ladi.

Maktabda bola sistemali ravishda yangiliklar oladi. Bu o'quvchining kundan-kunga orttirib borayotgan, xilma-xil mazmundagi bilimlarining manbaidir. Bolaning bilimlarni sistemali ravishda o'zlashtirib borishi natijasida undagi bilimning doirasi ham kengaya boradi, aqliy jarayonlar rivojlanadi, shu bilan bir qatorda, bolaning emotsional va irodaviy xususiyatlari qayta tarkib topib, rivojlana boshlaydi.

Maktabdagi ta'lim jarayonining o'zi bolalarning sezgi, idrok, xotira, tafakkur, nutq va diqqatlariga yangi talablar qo'yadi. Maktabdagi o'qish tashkiliy, muayyan maqsadga qaratilgan ancha ixtiyoriy aqliy jarayonlarni talab etadi.

Ko'rish sezgisi bilan idrok maktab ta'limida katta o'rin egallaydi. Gap shundaki, odam tashqi dunyodan keladigan axborotning asosiy qismini ko'rish retseptori faoliyati orqali oladi. Ya'ni ko'rish retseptori orqali olinadigan axborot hamda boshqa retseptorlardan keladigan axborotlarning 80 foiziga to'g'ri keladi.

O'quvchilar dars paytida o'z diqqat-e'tiborini uzoqdagi predmetlardan yaqindagi predmetlarga doimiy ravishda ko'chirib turishga to'g'ri keladi. Masalan, o'quvchi diqqatini doskadan o'qituvchining oldidagi stolga va so'ngra o'z oldidagi daftarga ko'chiradi, bu jarayon aksincha ham bo'lishi mumkin. Bu faoliyatda har ikkala ko'zni to'xtovsiz ravishda moslashtirish zaruriyati tug'iladi. Bola ko'zining akkomodatsiya (moslashish) qobiliyati o'sa boradi. Akkomodatsiyaning eng yuqori diapozoni 10 yoshli bolalardagina kuzatiladi.

Mashg'ulot jarayonida bolada goh uzoqqa, goh yaqinga qarashga ehtiyoj bo'ladi. Har ikkala ko'zning bu simmetrik holati (konvergensiya) ham sezilarli darajada boshlang'ich maktab ta'limida takomillashadi.

O'qish faoliyatining boshlarida o'quvchilarning toliqishlari yuqorida ko'rsatilgan ko'rish-sezgi jarayonidagi akkomodatsiya va konvergensiya hodisalarida o'ziga xos garmoniyaning yo'qligi sababli bolaning nerv sistemasida paydo bo'ladigan, shu bilan birga, bolaning butun organizmiga tushadigan ortiqcha yukdan vujudga keladi.

Bu ortiqcha yukka, har holda, o'qish jarayonining o'zida, bu murakkab o'qish faoliyatga ko'nikish sababli olib tashlanadi, akkomodatsiya va konvergensiya aloqasi to'la garmoniyaga ega bo'lgan holda takomillashadi, toliqish zaiflashadi. Kichik maktab o'quvchilari ranglarni va rang tuslarini seza boshlaydilar.¹²

Ye. I. Ignat'yevning tekshirishlari shuni ko'rsatadiki, asosiy rang tonlarining tusini ajratish murakkab ishdir, shuning uchun bolalarni bunga o'rgatish kerak. I sinf o'quvchilari qizil rangning o'rta hisobda uchta tusini, sariq rangning ikkita tusini ajrata

¹² X.Ibragimov, U.Yo'ldoshev, X.Bobomirzayev "Pedagogik psixologiya" Toshkent 2007.

oladi, yashil va ko'k rang tuslarini butunlay ajrata olmaydilar. Birinchi sinf o'quvchilari – ayniqsa qizlar – asosan eng ko'p uchraydigan qizil, sariq, yashil va ko'k ranglardan iborat to'rtta rangli yaxshi ajratadilar.

Agar bolalar rangning tuslarini ajratishga maxsus o'rgatilsa, ularda ranglarni farqlay olish xususiyati ancha o'sib boradi. Masalan, bu sohada 20 ta eksperimental mashg'ulot o'tkazilganda, bolalar eng och rangdan to'q rangcha bo'lgan jun ip kalavasini ajratganlar. Ana shundan keyin ular o'rta hisob bilan 12 ta qizil, 10 ta sariq, 6 ta yashil va 4 ta ko'k rang tuslarini bir-biridan farq qila olganlar.

Kichik maktab yoshi – fonematik eshitish, ya'ni nutqni eshitishning rivojlanishi va takomillashishi davridir. O'qish mashg'uloti va yozma mashqlar o'quvchilarda fonematik eshitishning ancha nozik xususiyatining paydo bo'lishiga yordam beradi.

Ma'lumki, idrok ham bilim manbaidir. Idrok murakkab aqliy jarayondir. Idrokda retseptiv va aperseptiv tomonlarni ajratish mumkin. Kichik yoshdagi o'quvchilarda idrokning o'sishi yuqorida ko'rsatilgan retseptiv, perseptiv va apperseptiv iborat barcha tomonlarning qayta tuzilishi va o'sishi demakdir.

O'quvchilar predmetlarni, ularning tasvirini va nutqni idrok qiladilar. Bolalarning predmetlarni idrok qilishi xususiyati ularni batafsil, aniq aks ettirishlari bilan xarakterlanadi. Bular diqqatning xususiyati bilan tushuntiriladi. O'quvchilar diqqati asosan tashqi diqqat xarakterida bo'lib, ichki diqqat ularda hali taraqqiy etmagandir. Shuning uchun yaxshi tanlangan ko'rgazmali qurol kichik yoshdagi o'quvchilarni o'qitishda foydalidir.

Kichik maktab o'quvchilariga ta'lim berishda biror ko'rinishni, biror predmetni aks ettiruvchi rasmlar va boshqa ko'rgazmali qurollar katta ahamiyatga egadir. Rasmni idrok qilishda appersepsiya ayniqsa katta rol o'ynaydi. Bu yerda bo'yoqlar, soyalar, ularning bir-biriga mos tushishi bevosita qo'zg'ovchi bo'lib, bularning barchasi qog'oz yuzida berilgan bo'ladi. Appersepsiya orqali o'quvchilar rasmdagi mazmun, harakat va perspektivani idrok qiladilar.

Rasmlarni idrok qilishda tushuntirishning roli kattadir. M. N. Shardakovning tajribalari shuni ko'rsatadiki, rasmlarni tushuntirish orqali idrok qilish esda saqlab qolishni osonlashtiradi va esda olib qolish esa, o'z navbatida, esga tushirishning sifatli

bo'lishiga ta'sir qiladi. Tushuntirish orqali rasmlarni bevosita esga tushirishning, ularni tushuntirmasdan bevosita esga tushirishga qaraganda 21 foiz yuqori turishi aniqlangan.

Inson idrokining o'tmish tajribasi, idrok qilinayotgan buyumlarni bilishda sezgi organlari (ko'z, quloq) faoliyatini idrok qilinayotgan buyumdagi ma'lum va tanish narsalarni ko'rish (eshitish) tomon yo'llaydi. Idrokning tanlab eks ettirish xususiyati ham ana shundan kelib chiqadi.

2.3.O'quvchilarning sezgi hususiyatlarini o'rganilishi

Psixofizika umumiy psixologiyaning klassik bo'limlaridan biri bo'lib, uning asoschisi Gustav Teodor Fexner (1801-1887) hisoblanadi. Psixofizikaning o'ziga xos tomoni. Kuzatilayotgan hatti-harakat va ruhiy holatlar eng avvalo ularni vujudga keltirgan turli fizik (tabiiy) sharoitlar orqali tushuntiriladi. Ayniqsa, sensor va pertseptiv faoliyatini psixofizik o'rganilishi yaxshi rivojlangan bo'lib tadqiqotlar 2 xil yo'nalishda 1-sezgirlik chegaralarini o'rganish: 2-psixofizik shkalalar tuzish; tarzida tashkil etiladi.

Tekshiruvchilar ish holatini yozib olishning zamonaviy vositalaridan foydalanish nafaqat sensor va pertseptiv jarayonlarni, balki ichki faollik va qaror qabul qilish kabi holatlarni ham o'rganish imkonini beradi. Psixofizikaning zamonaviy uslublaridan biri R.SHepardning ko'p o'lchovli shkalalashtirish metodikasidir. Uning yordami bilan sezgirlikning eng muhim va o'ziga xos tomonlari o'rganiladi. Bunday tadqiqotlar nafaqat sezgirlik psixofizikasida, balki hissiyot psixologiyasida, psixodiagnostika va psixosemantikada ham keng qo'llaniladi.

Psixofizik muammo keng ma'noda birinchidan, psixikaning tabiatdagi o'rni, tor ma'noda esa psixologik va fiziologik jarayonlarning o'zaro nisbatidir. Ikkinchidan, psixofizika muammosini psixofiziologik muammo, deb atash mumkin. Psixofizik muammolar - XVII asrda R.Dekart jonli organizmlarning xulq-atvorini mexanik o'zaro ta'sir sifatida qarash kerakligi haqidagi g'oyani ilgari so'rgandan so'ng, ayniqsa, dolzarb bo'lib qoldi.

Bu g'oyaga ko'ra ongning tushuntirish qiyin bo'lgan aktlari jimsiz fazoviy bo'lmagan substantsiyaga kiritilgan. Bu substantsiyaning "tana mashinasi" ishiga munosabati R.Dekartni psixofizik o'zaro ta'sir kontseptsiyasini ilgari surishga undadi, ya'ni tana faqat harakat qiladi, jon faqat fikrlaydi, ular miyaning muayyan qismida bir-biriga ta'sir etadi.

T.Gobbs va B.Spinoza bu g'oyaga qarshi chiqib, o'z qarashlarini ilgari surishgan. Gobbs, sezgini moddiy jarayonlarning yordamchi predmeti, deb qarasa, Spinoza g'oyalar tartibi, xuddi buyumlar tartibiga o'xshaydi, deb ko'rsatadi. G.V.Leybnits, mexanistik qarash bilan psixikani noyob mohiyat, deb qarashni bir-

biriga aralashtirgan holda psixofizik parallelizm g'oyasini ilgari surdi. Uning fikricha tana va jon o'z operatsiyalarini bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda bajaradi, lekin ular o'rtasida nihoyatda nozik kelishuvchanlik mavjud. Ular bir-biriga bog'liq bo'lmay yurayotgan, lekin bir vaqtni ko'rsatayotgan ikkita soat strelkasiga o'xshaydi.

XIX asrning oxiri XX asr boshlarida psixofizik muammoni mexanizm yo'nalishida talqin qilish keng avj oldi. Bu oqim jon va tanani bir xil elementdan tashkil topgan, deb hisoblaydi.

Juda ko'plab asarlarda psixofizik muammolar, psixikani yuksak darajada tashkil topgan materiyaning xossasi, ya'ni jonli mavjudot bilan tashqi dunyoning o'ziga xos ta'siri natijasi sifatida qarash orqali tushuntiriladi. Psixofiziologiya va u bilan bog'liq ko'pgina fanlarning tarmoqlarida psixik aktlar va ularning fiziologik substratlarining bog'liqligi haqida boy ma'lumotlar to'plandi.

?

*Sezgi qonuniyatlarini kuzatish orqali ham o'rganish
mumkinmi?*

G.Fexner absolyut va farq qilish chegaralarini o'lchashning bir necha metodlarini taklif kildi.

Bunday metodlardan biri minimal o'zgaruvchilar yoki chegara metodi deb yuritiladi.

Bu metodning mohiyati uning nomidan ko'rinib turibdiki, oldindan tayyorlangan qo'zg'atuvchilar shunday berib boriladiki, ular bir-biridan minimal darajada farq qilishini aniqlash mumkin bo'ladi. Qo'zg'atuvchi goh ortib, goh kamayib boruvchi tartibda beriladi. Har bir turkum qo'zg'atuvchilar tartibi javoblarning o'zgarishi bilan belgilanadi. («ha», «yo'q», «ko'ryapman», «ko'rmayapman»). Odatda sezgirlikni o'lchash kamayib boruvchi qo'zg'atuvchilar berib borishdan boshlanadi. Qo'zg'atuvchining ta'siri sezilmay kolguncha davom ettiriladi. Ortib boruvchi qator uchun ham shunday tartibda o'tkaziladi. Tajribaning har bir qismi 6 martadan 15

tagacha takrorlanadi. Sezgirlikning absolyut chegarasi sifatida ularning o`rtacha arifmetik qiymati (M) olinadi.

$$RL = \frac{EL}{N}$$

bu erda RL - o`rtacha sezgirlikning absolyut chegarasi, L - har bir o`svuchi va kamayuvchi qo`zg`atuvchilar qatorining chegara qiymati, N - qo`zg`atuvchilar qatorining umumiy soni. Tekshiriluvchilar javoblarining variativligi o`rtacha kvadratik chetlanish( $\delta$ ) yordamida aniqlanadi o`rtacha xatolar quyidagicha aniqlanadi.

$$d_{RL} = \frac{\delta}{\sqrt{N-1}}$$

bu erda - RL - dan o`rtacha arifmetik chetlanish, N - tanlanmalar soni.

?

Sezgirlik chegaralarini o`rganishda ko`proq qaysi metodga asoslaniladi?

Sezgirlikning absolyut chegarasini aniqlash maqsadida doimiy qo`zg`atuvchilar yoki konstant metodidan ham foydalaniladi. Bu metodni boshlashdan avval chegara zonasining diapazonini aniqlab olish kerak. CHegara zonasi, tekshiriluvchi qo`zg`atuvchini sezadigan yoki sezmay qoladigan intensivligi zonasidir. Bu zona teng bir-xil toq bo`lgan intervallarga bo`linib olinadi. (5 dan 9 gacha). SHuning uchun ham qo`zg`atuvchilarning barcha kuchlari o`rtasidagi farq doimo bir xildir.

Sezgirlikning farq qilish chegarasini aniqlash maqsadida ham minimal o`zgaruvchilar metodidan foydalaniladi. Farq qilish chegarasini aniqlash maqsadida dastlab etalon qo`zg`atuvchini ajratib olish kerak. Dastlab etalon qo`zg`atuvchi, keyin o`zgaruvchi qo`zg`atuvchilar bir vaqtda beriladi. Tekshiriluvchi “katta”, “kichik” yoki «teng» deb javob berishi kerak bo`ladi. Natijalarni tahlil qilish uchun javoblar o`zgarishi “kichikdan tengga” “tengdan katta”ga o`tishining chegarasini aniqlash zarur bo`ladi. “katta” va “ kichik” degan javoblarning o`rtacha qiymati topiladi. Ular o`rtasidagi farq noaniqlik intervalini belgilaydi. Noaniqlik intervalining teng yarmi qidirilayotgan farq qilish chegarasini topish imkonini beradi.

O'quvchilarning teri va badan orkali sezishini tekshirish.

Tadqiqotning maksadi: talabalarga insonning bilish faoliyatida sezgining rolini kursatib berish.

Tadqiqot uchun zarur jixozlar: unchalik katta bulmagan oddiy buyum (predmet): kalit, rezina, bor, tugma, ilmatugma kabilar.

Tadqiqotning borishi: tadqiqot ikki seriyada utkaziladi. Birinchi seriyada tekshiruvchi tekshiriluvchiga orka ugirib, karamay turishni taklif kiladi va dastlab tekshiriluvchining bamoklari ortiga, keyin kaftiga-barmoklari uchiga kalit, rezina yoki ignatugmani kuyadi. Xar safar tekshiriluvchiga karab: «Ushbu buyum xakida nima deyishingiz mumkin?», -degan savolni berib boradi. Tekshiruvchi tomonidan beridgan javoblarni gurux yozib boradi.

Tadqiqotning ikkinchi seriyasida tadqiqotchi tekshiriluvchiga predmetni ushlab kurishni taklif kiladi va birinchi seriyada utkazilgan tajriba jarayonidagi savolga javob berishni suraydi. Tekshiriluvchining bergan javoblarini Bu safar xam butun gurux yozib boradi.

Xar bir tajribani dastlab psixologiya ukituvchisining uzi utkazib kursatadi. Sungra talabalarning uzlari mustakil utkazadilar.

Tadqiqot natijalarini taxlil kilish: sinaluvchi kishida bir-biridan ajratilgan aloxida-aloxida sezgilar paydo buladi. Bu sezgilar pridmetning nima ekanligini bilishga imkon bermaydi. Uning fakat ayrim xsusiyatlarini aks ettiradi: «kandaydir bir engil narsa», «yumshok bir narsa», «sovuk narsa», «metall buyum» va shunga uxshash javoblar beriladi.

Ikkinchi seriyada utkazilgan tajribaning kup xollarida sinaluvchilar predmetning nima ekanligini aytib beradilar. Chunki predmet kompleks kuzgatuvchi sifatida badan orkali sezish yordamida idrok etiladi. Bunda fakat teri sezgilari emas, balki kinester

KURISH SEZGISIDA IZCHIL RANGLAR KONTRASTINING XOSIL BULISH KONUNIYATI.

Tadkikotning maksadi: kurish sezgisida ranglar kontrastining xosil bulishini tekshirish.

Tadkikot uchun zarur jixozlar: kattaligi 48X64 sm bulgan ok kogoz varaklari, ularga 15X15 sm kattalikdagi yashil, kizil, kuk, sarik rangli kvadratlar kirkib yopishtirilgan, ok rangli ekran.

Tadkikotning borishi: tajribani tabiiy kunduzgi yoruglik sharoitida yoki kunduzgi yoruglikka yakin bulgan nur taratadigan lampalar yorugligida utkaziladi.

Tajribada ishtirok etayotgan talabalar xonada shunday utiradilarki, ularning xar biriga rangli kvadrat tuppa-tugri kurinib turadigan bulsin.

Kvadratlar ulardan 4 metrgacha uzaklikda urnatiladi. Talabalarga 20-40 sekund mobaynida rangli kvadratlarga tikilish, keyin esa uz nigoxini ekranga kuchirish xamda unda rangli kvadrat paydo bulmaguncha nigoxni uzmay turish taklif kilinadi. Bunda turli kishilarda izchil ranglar kontrasti turlicha kechishini ta'kidlab utishi zarur.

Oldindan tayyorlab kuyilgan barcha rangdagi kvadratlar bilan tajribani takrorlash zarur.

Tajribalar tamom bulgandan keyin ularning natijalarini yozib olish, yozilayotgan kvadrat rangini belgilash xamda izchil kontrastda paydo bulayotgan ranglar tonini kursatib yozish zarur. Bunda izchil kontrastlar xarakatdan keyingi xodisa natijasi ekanligini ta'kidlab utish zarur. kuzgovchi ta'sirining tuxtashi retseptordagi kuzgalish jarayonini xamda analizatorning miya pustlogi kismidagi kuzgalishlarni usha zoxoti tuxtamaydi

Sezgi mavzusida tayanch so'zlar

Sezgi chegarasi – sezgi organiga ta'sir etayotgan stimul ahamiyati. U quyi absolyut chegara yuqori absolyut chegara yoki turli chegaralar hosil qiladi.

Intertseptorlar – ichki organlarda joylashgan retseptorlar.

Ekstrotseptorlar – tashqi organlarda joylashgan retseptorlar.

Appertsepsiya – idrok protsessiga shaxsni tajribasi, bilimlarining ta'sir ko'rsatishi.

Proprietseptoro` – muskullarda, bo'g'im, paytlarda joylashgan retseptorlar

Pertseptiv sistema – ushbu idrokni yuzaga keltiruvchi analizatorlar yig'indisi.

Subsensor idrok – chegara darajasiga etmagan ta'sirotlarni sezgi organlar orqali miyaga berishi, ongsiz idrok.

Savollar:

1. Qanday sezgi qonuniyatlarini bilaiz?
2. Qaysi xususiyatlar sezgi uchun xarakterli?
3. Qanday idrok turlarini bilasiz?

Sezgi deb sezgi organlarimizga bevosita ta'sir etib turgan narsa va hodisalarning ayrim sifat va xossalarning miyamizda aks ettirishiga aytamiz. Sezgi oddiy psixik protsess. Sezgi hosil bo'lishi uchun ta'sir etayotgan narsa yoki hodisa va sezgi organi bo'lishi shart. Sezgi organlari retseptor, o'tkazuvchi yo'l (qo'zg'alishni miyaga etkazib beruvchi va miyada olib keluvchi) va bosh miyadagi tegishli markaz (nerv qo'zg'alishi shu erda psixik hodisaga sezgiga aylanadi)dan iborat.

Retseptorlar – tashqi organlarda joylashgan eksterotseptorlar, ichki organlarda joylashgan interoretseptorlar, muskul, bo'g'im, paytlarda joylashgan propriotseptorlarga bo'linadi.

Insondagi barcha sezgilar – tashqi olamdan keluvchi signallar ko'rish. Eshitish, ta'lim, hid bilish va gavdaning turli qismlar to'g'risida ma'lumot beruvchi sezgilar.

Sezgi xususiyatlari deb uning sifati, intensivligi, davomiyligi, qo'zg'atuvchilarning fazoviy lokalizatsiyasiga aytiladi.

Sezgi qonuniyatlari:

- a) Sezgining kuchi va uzoq vaqt davom etishi
- b) Sezgi chegaralari.

Sezgi chegarasi bu sezgi organiga ta'sir etayotgan ta'sirotning ahamiyati bo'lib, u sezgini quyi absolyut chegarasini yoki sezgini yuqori absolyut chegarasini yoki turli sezgi chegaralarini hosil qilishdir.

Sezgi chegarasi va sezgirlik munosabatlari: E -- formulasi

P

bilan aniqlash mumkin. Bu erda E – sezgirlik, R - qo'zg'atuvchining ta'sir chegarasi.

Veber va Fexner tomonidan sezgi kuchini qo'zg'atuvchi logarifmiga proportsional ekanligi aniqlangan.

$S = K \lg C + C$, S –sezgi kuchi, SiK – konstantalar, I – ko'zg'atuvchi she'ri.

Sezgiga quyidagi xossalar xarakterli:

Adaptatsiya - qo'zg'atuvchi ta'sirini o'zgarishiga organlaridan kelayotgan ta'sir natijasida moslashishi (qorong'ulikka, yorug'likka, hidlarga . . .)

Sensibipizatsiya – ayni vaqtda boshqa sezgi organlaridan kelayotgan ta'sir natijasida ushbu sezgini kuchayishi (ko'rishni ayni vaqtda eshitish ta'sirotlari natijasida kuchayishi)

Sinesteziya – biron qo'zg'atuvchini ma'lum bir sezgi organiga ta'sir etib, faqat shu sezgi a'zosi uchun xos bo'lgan sezgigina emas, balki boshqa sezgi uchun xos bo'lgan qo'shimcha sezgi yoki tasavvurni hosil bo'lishi.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Psixofizikaning asoschisi kim?


- A) Veber
- V) Gel'mgol'ts
- S) Dekar
- D) Fexner
- E) Myuller

2. Psixofizika qaysi fanning bo'limi hisoblanadi?

- A) Psixofiziologiya
- V) Psixodiagnostika
- S) eksperimental psixologiya
- D) Differentsial psixologiya
- E) Umumiy psixologiya

3. Farq qilish chegarasi qaysi metod yordamida o'rganiladi?

- A) Minimal qo'zg'atuvchilar metodi
- V) CHegara metodi
- S) Doimiy o'zgaruvchilar metodi
- D) «Ha» yoki «yo`q» metodi
- E) «Xato va sinovlar» metodi



1-Masala

Bine-Shtern nazariyasiga binoan bolalarda ko'zatishtning rivojlanishi bir qancha bosqich yoki darajalardan o'tadi. Bu darajalar muayyan bir izchillikda bir-birining o'rnini almashtirib turadi va doimiy ravishda shunday harakatda bo'ladi: 1) turli aralash predmetlarni sanab, nomma-nom aytib bera olish bosqichi (3 yoshdan 7 yoshgacha); 2) bayon eta olish bosqichi: bunda predmetlarga xarakteristika beriladi, ular o'rtasidagi ba'zi bir aloqalar ko'rsatib o'tiladi; 3) izohlash, tushuntirish bosqichi: bunda manzara umuman to'liq idrok etiladi, narsa va hodisalar o'rtasidagi aloqalar hamda munosabatlar ochib beriladi.

Ushbu nazariyani amalda tekshirib ko'rish vaqtida sovet psixologlari (S. L. Rubinshteyn, G. T. Ovsepyan) shunday xulosaga keldilarki, yuqorida ko'rsatib o'tilgan bosqich va darajalarni bolalarning yoshiga nisbatan olmaslik kerak. Narsa va hodisalarni k;ay darajada idrok etishiga qarab bir xil yoshdagi bir qancha bolalar turli

ko'zatisht bosqichlarida bo'lib qolishlari, xuddi shuningdek turli yoshdagi bolalar aynan shu xil bosqichda bo'lib qolishlari mumkin.

2-Masala

O'quvchilar kichik yoshdagi sinflardan katta yoshdagi sinflarga o'tgani sayin ulardagi ko'zatuvchanlik o'zgarib boradi. Agar kichik yoshdagi o'quvchilarda bu ko'zatuvchanlik u yoki bu predmet, hodisaning sirtidagi belgilarni ko'rishda namoyon bo'lsa, o'rta va katta yoshdagi o'quvchilarda bunday ko'zatuvchanlik ularning voqea-hodisalarning mohiyatini tushuntirishga, ularning yashirin, lekin goyat muhim belgilarini aks ettirishga harakat qilishlarida namoyon bo'ladi.

Savollar

Ko'zatuvchanlikdagi bunday o'zgarish nimalar bilan izohlanadi?

O'quvchilarning ko'zatuvchanligini rivojlantirishda o'qituvchi qanday rol o'ynaydi?

XULOSALAR

Biz bitiruv malakaviy ishimizda boshlang'ich sinf o'quvchisining sezgirligi va kuzatuvchanligi hislatlarining ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati uning muhim xususiyatlarini ochib berishga harakat qildik. Buning uchun ta'lim jarayoning barcha turlari va bosqichlarida uning samaradorligini oshirish, umumpsixologik qonuniyatlarga suyanmoq lozim. BMIning asosiy vazifasi Boshlang'ich sinf o'quvshilarining sezgi jarayonlarini shakllantirishning psixologik jihatlarini aniqlab yuksaltirishga oid hususiyatlarni shakllantirishning psixologik samaradorligini, rolini va uning tub mohiyatini yoritib berishdir.

BMI Boshlang'ich sinf o'quvchisining sezgirligi va kuzatuvchanligi hislatlarining ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati va unga oid bir qancha masalalarini chunonchi, ta'lim samaradorligini oshirishning yangi bosqichida o'qitishning ta'lim berishning pedagogik psixologik usullardan foydalanish muammolari, psixologik jixatlari shakllantirish motivlari tushuntirib byerilgan. Boshlang'ich sinf o'quvshilarining sezgi jarayonlarini rivojlantirish usullari bilimlarni ham kengaytirish va takkomillashtirish uchun imkon byeradi. Kichik maktab yoshi o'quvchilarida sezgilarini shakllantirishning imkoniga ega bo'lishlari uchun psixik rivojlanishga oid zaruriy adabiyotlar testlar va tavsiyalar xarbir bobning oxirida ko'rsatib o'tiladi.

Biz o'z ish tajribalarimizga asoslanib boshlang'ich sinf o'quvchisining sezgirligi va kuzatuvchanligi hislatlarining ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati haqida fikr yuritishga xarakat qildik. Bir qancha mualliflar tomonidan olib borilgan mualliflar tadqiqotlarini o'rganib chiqib, ularni alohida sinab ko'rishga muvaffaq bo'ldik va o'quvchilar sezgilari haqida tegishli takliflarimizni ishlab chiqishga harakat qildik. Bitiruv ishining rejasida belgilangan barcha paragraf ayrim o'xshashlik va umumiy tomonlarga tayanib quyidagicha mulohazalarimizni ishlab chiqishga muvaffaq bo'ldik:

I sinf o'quvchilarida predmet va hodisalardagi belgilarni turlarga ajratish yetarli darajada taraqqiy etganligi sababli ular predmetlarning ayrim belgilarini sanab ko'rsatish bilan chegaralanadi, bu yoshdagi bolalar buyumlarni tahlil qilishga harakat qilmaydilar. Ular predmet va hodisalardagi 2-3 belgilarnigina tasvirlaydi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar sezgi jarayonida o'quvchilar ko'zga tashlanib turgan ayrim belgilargagina e'tibor qiladi va idrok qilinayotgan ob'yektni muntazam tahlil qilinmaydi. Shu sababli narsalarni idrok qilish tasodifiy kam ahamiyatga bo'lgan belgilarga asoslangan bo'ladi.

Shu munosabat bilan idrok va kuzatuvchanlikning shakllanishida ko'proq sezgi organlarining ishtirok etishi mumkinligini qayd etish kerak. K.D. Ushinskiy ta'kidlaganidek, o'qituvchi, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchisi sezgi va kuzatuvchanlikni uyushtirish jarayonida (mulohaza tizimi) bolaning ko'zi, qulog'i, nutq apparati, mushkul-harakat sezgilari, imkoni bo'lsa, hid va ta'm bilish sezgilarini ham ishtirok etish chorasini ko'rishi lozim.

Ta'lim jarayonida kuzatishlarni faollashtirish uchun o'quvchining sezgan his qilgan narsalarni gapirib berishi lozimligi haqida ogohlantirishning ahamiyati katta bo'ladi. O'quvchi kuzatgan va idrok qilgan predmet, hodisalar haqida kichik hikoya qilib berishini oldindan bilsa u kuzatish va idrok qilish jarayonida ancha faollik ko'rsatadi.

Shunday ekan, boshlang'ich sinf o'quvchisining sezgi hislatlarining ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati aniqlash muhim vazifadir. Bolalarni narsa va xodisalarni diqqat bilan kuzatishga, taqqoslash va solishtirishga, ular o'rtasidagi bog'lanishlarni bilib olishga, bilinar-bilinmas o'zgarishlarni ko'ra olishga, narsa va hodisalarning muhim tomonlarini ajrata olishga o'rgatish kerak. Bunga darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilar sezgi hamda kuzatishlarini to'g'ri tashkil etish orqali, ular oldiga turli vazifalar qo'yish bilan erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: 2008.
2. Karimov “Jahon moliyaviy – inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari”. Toshkent 2009
3. Karimov I. A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish – bosh yo'limiz. G`G` Ma'rifat, – Toshkent: 2002 (16.02.02y.).
4. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z ho'limiz bilan huramiz. – 7– tom. –Toshkent: O'zbekiston,
5. Karimov I.A. Sohlom xalq, sohlom millatgina buyuk ishlarga hodir bo'ladi. G`G` Xalq so'zi. – Toshkent: 2004 (8.12.2004y.)
6. O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standartlari. O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim standartlarining davlat tizimi. Oliy ta'lim. 5141600 – Boshlang'ich ta'lim va sport–tarbiyaviy ish yunalishi. – Toshkent: 2006
7. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» G`G` Oliy ta'lim (me'yoriy huquqiy va uslubiy xujjatlar to'plami). – Toshkent: 2004.
8. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun G`G` «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». – Toshkent: O'zbekiston, 1997.
9. Andreeva G.M. Sotsial'naya psixologiya. M., Aspekt press, 1999.
10. Badmaev B.TS. Psixologiya: kak ee izuchit' i usvoit'. M., Uchebnaya literatura, 1997.
11. Vilyunas V. Psixologiya emotsiy. M., Izdatel'stvo Moskovskogo universiteta. 1984.
12. Davletshin M. Va b. Psixologiya izohli lug'at. T., O'qituvchichi, 1998.
13. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya. T., O'qituvchichi, 1994.
14. Leont'ev A.M. Problemu razvitiya psixiki. M.. Nauka, 1982.
15. Logvinenko A.D. CHuvstvennue osnovu vospriyatiya prostranstva. M., Izdatel'stvo Moskovskogo universiteta, 1985.
16. Nemov R. Prakticheskaya psixologiya. M., Vldos, 1998.
17. Petrovskiy A.V. Lichnost', deyatel'nost', kollektiv. M., 1982.
18. Rogov E.I. Nastol'naya kniga prakticheskogo psixologa. M. Vldos, 1999.

19. Simonov P.V., Ershov P.N. Temperament, xarakter, lichnost'. M., Nauka, 1984.
20. Siuni A.S. Prakticheskie zanyatiyapo psixologii. M., Prosvexenie, 1990.
21. Tixomirov A.K. Psixologiya mushleniya. M., Izdatel'stvo Moskovskogo universiteta. 1984.
22. Xalilov M.X. Oila psixologiyasi. SamDU nashri, 1998.
23. Xalilov M.X. Bilish jarayonlari psixologiyasi.SamDU nashri, 1999.
24. CHuprikova N.Psixika soznanie kak funktsii mozga. M., Musl', 1985.
25. Xerbakov A.I. Praktikum po obxey psixologii. M., Prosvexenie, 1990.
26. G'oziev E. Intellect psixologiyasi. T., O'qituvchichi, 1996.
27. Goziev E. Va b. Psixologiya muammolari. T., O'qituvchichi, 1996.
28. Goziev E. Psixologiya. T., O'qituvchichi, 1994.
29. Karimova V. Psixologiya. Toshkent 2000y.
- 30.X.Ibragimov, U.Yo'ldoshev, X.Bobomirzayev Pedagogik psixologiya T-2007.